

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 54 (1653), 2026-yil 20-mart, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## SAMARQANDNING EZGULIK VA MA'RIFAT NURINI TARATUVCHI QUTLUG' DURDONASI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Payariq tumanida qaytadan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasiga tashrif buyurdi.



Sharq gavhari — Samarqandning o'ziga xos sehri, jozibasi, ohanrabosi bor. Bu minglab yillar qa'ridan darak beruvchi tarixida, o'zbek xalqining buyukligi, daholigi, donishmandligi, zakosi haqida so'zlovchi ilmiy manbalarda, bunyodkorligini ko'z-ko'z qiluvchi asrlarni qaritgan muhtasham inshoot-umoratlarida namoyon bo'ldi.

Ko'hna va hamisha navqiron kentda ko'plab ilm ahli va allomalar ulg'aygan, kamol topgan. Shu bois, bu muazzam zamin

barcha uchun hamisha jozibali bo'lgan va unga intilgan. Azim shaharning bunday sharafli tarixi, betakror merosi, ma'rifati, ma'naviyati, madaniyati doim hayratlarga sabab. Shu jihatdan olganda, bu ko'hna zamining bebaho boyligi bugungi hayotimiz, ayniqsa, dunyoda xotirjamlik, barqarorlik omonat bo'lib turgan ayni paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun Samarqandning qadimiy me'moriy obidalarini saqlash, bobolar merosini ajdodlarga yetkazishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Imom Buxoriy majmuasi nafaqat Samarqand yoki O'zbekiston, balki butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas manzillardan biri. Chunki buyuk muhaddis olim yashagan davr vaqt nuqtayi nazaridan ham, zamon nuqtayi nazaridan ham uzoq o'tmish. Lekin alloma yaratgan maktab, ta'lim, ilm, katta ma'rifiy meros hech qanday vaqtga bo'syunmaydi. Zero, u umrini bag'ishlagan ilm barhayot.

Prezidentimiz Samarqand viloyati Payariq tumanida qaytadan bunyod etilgan ushbu majmuada bo'ldi.

Ziyoratgohning qoq markazida buyuk muhaddis bobomizning tabarruk maqbarasi o'rin olgan.

Davlatimiz rahbari maqbarani ziyorat qildi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

— Muborak Ramazon hayiti arafasida buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy hazratlarining ruhi poklariga yana bir bor hurmat-ehтиrom bajo keltirmoqdamiz. Buxoriy bobomiz Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba bo'lgan hadislar kitobini yaratib, butun islom olamida shuhrat qozongan ulug' siymodir. Muqaddas zaminimiz dunyoga mana shunday mashhur allomani bergani bilan har qancha faxrlansak, arzidi.

El-yurtimizning fidokorona mehnati bilan bugun orzu-niyatlarimiz ro'yogba chiqdi. Bu betakror ziyoratgohni Imom Buxoriy bobomizning olamshumul mavqeiga, yuksak maqomiga munosib darajada bunyod etishga muvassar bo'ldik. Mana shunday tabarruk maskan barchamizga muborak bo'lsin, — dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, Imom Buxoriyning islom madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi dunyo miqyosida e'tibor topgan. Yoshligidanoq ilmga ehtiyoji zo'r, zehni o'tkir bobomiz o'n olti yil davomida olti yuz ming hadisini ajratib, ularni tartibga solib, ulkan asar yaratgani ham hayratlanarli, ham dunyo musulmonlari uchun beqiyos xazinadir.

Prezidentimiz Imom Buxoriy majmuasida yakuniga yetgan bunyodkorlik ishlari va yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Majmuada davlatimiz rahbari tashabbusi bilan buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratildi.

► Davomi 2-beta

## O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

Qadrlı vatandaşlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni ezgulik, mehr-oqibat va saxovat ayyomi — muqaddas Ramazon hayiti bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu shukuhli onlarda barchamizni mana shunday fayzli va saodatli kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytamiz.

Keyingi yillarda shakllangan an'anamizga muvofiq, mamlakatimizda Ramazon oyini munosib o'tkazish bo'yicha bu yil ham sizlar bilan, xalqimiz bilan birgalikda ko'plab xayriy ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, maxsus qaror asosida aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi 35 yilda birinchi marta 1 trillion so'm mablag' ajratilib, muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, bemorlarga zarur tibbiy yordam ko'rsatish kabi ezgu ishlarga sarflanganini ta'kidlash lozim. Xususan, 450 milliard so'm 600 mingdan ziyod ehtiyojmand oilaga moddiy ko'mak tariqasida yo'naltirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyestrtdagi davolash rejalashtirilgan 6 ming nafar bemorga tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, jumladan, og'ir kasallar operatsiya yo'li bilan davolanmoqda.

Shuningdek, aholiga 100 ming dona Ramazon sovg'alari tarqatildi. "Ramazon tuhfası" loyihasi doirasida esa ehtiyojmand oilalar, "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida yashovchilar hamda xorijdagi vatandoshlarimiz uchun 30 mingdan ortiq iftorlik tadbirlari o'tkazildi.

Bunday olijanob ishlarni muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga uyg'un va hamohang bo'lib, inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarimizning ulkan amaliy natijalari sifatida barchamizni xursand qiladi.

Aziz do'stlar!

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining yanada muhim bosqichiga qadam qo'ymoqda. Keng ko'lamlı yangilanish jarayonlari tufayli hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida o'sish va yuksalish sur'atlari ortib bormoqda. Diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, islom sivilizatsiyasining boy merosini chuqur o'rganish va uni keng targ'ib qilish borasida ham katta ishlarni amalga oshirilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, o'tgan yili Buxoro shahrida tasavvuf ta'limotining yorqin namoyandasi, buyuk avliyo bobomiz Bahouddin Naqshband hazratlari nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilganini esga olish o'rindir.

Bu yil esa, mana shu qutlug' va muborak kunlarda Toshkent shahrida O'zbekistondagi

Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishi xalqimizga o'ziga xos Ramazon tuhfası bo'ldi.

Bu kabi ezgu ishlarimizning davomi sifatida kalom ilmining sultoni Imom Moturidiyning Samarqand shahridagi majmuasi yangidan barpo etilmoqda. Toshkent shahrida esa yaqin kunlarda Xalqaro bag'rikenglik va dinlararo muloqot markazi faoliyatini yo'lga qo'yamiz. Ushbu markaz Vatanimizning millatlar va dinlararo muloqot va hamkorlik, tinchlik va do'stlik diyorı sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi deb ishonaman.

Hurmatli yurtodoshlar! Jahondagi hozirgi g'oyat murakkab vaziyatda oila va mahallalarda, butun mamlakatimizda osoyishtalik, fayz-u baraka muhitini saqlash, yoshlarimizni yot va buzg'unchi g'oyalarni ta'siridan asrash o'ta dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda.

Biz bu borada katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, jonkuyar aka-uka va opa-singillarimiz, hurmatli ziyoli va ulamolarimizga, mahalla faollari hamda tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Ushbu ulug' ayyom kunlarida jahonning turli hududlaridagi urush va nizolar tezroq barham topib, barcha xalqlar tinchlik va barqarorlikda hayot kechirishini tilab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, dunyoning olis va yaqin mamlakatlaridagi musulmon birodarlarimizni qutlab, samimiy salom va tilaklarimizni yo'llaymiz.

Xorijda bayram shukhi bilan yashayotgan vatandoshlarimizni ham chin dildan tabriklab, ularning ishlari va o'qishlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Qadrlı va muhtaram yurtodoshlar!

Alloh taoloning rahmati yog'ilib turgan ushbu qutlug' damlarda siz, azizlarni Iyd al-Fitr bayrami bilan yana bir bor muborakbod etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Ramazon oyida tutgan ro'zalarimiz, qilgan ezgu amallarimiz qabul bo'lsin!

Parvardigori olam el-yurtimizni O'z panohida asrasin!

Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-mart kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti va Navro'z bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, birodar xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Subhatda Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini

yanada kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlash barqaror ortib borayotgani, savdo-iqtisodiy, investitsiya-viy, transport, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarda qo'shma kooperatsiya loyihalari ilgari surilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tomonlar, shuningdek, Yaqin Sharqdagi vaziyatni muhokama qildilar. Uning

yanada keskinlashishi keng mintaqa uchun oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlariga, jahon iqtisodiyoti retsessiyasiga olib kelishi mumkinligi, vaziyatni faqat siyosiy-diplomatik vositalar bilan tez fursatda yumshatish zarurligi qayd etildi.

Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejası ham ko'rib chiqildi.

O'ZA

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### MAHALLA TIZIMI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH YURTDOSHLARIMIZNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, mahallaning Yangi O'zbekiston hayotidagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirish, yurtimizda keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish orqali inson qadriini ulug'lash, mahallabay ishlash tizimini samarali yo'lga qo'yish borasidagi katta xizmatlari, jamiyatimizda o'zaro do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, azaliy ezgu an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

**"Mehnat shuhrati" ordeni bilan**

**Kalendarova Muborak Durdiboyevna** — Olot tumanidagi "Buvijonlar maktabi" jamoatchilik kengashi raisi, Buxoro viloyati  
**Xudaybepganov Madpaxim Xudaybepganovich** — Bog'ot tumanidagi "Kattabog'" mahalla fuqarolar yig'ini kengashi raisining o'rinbosari, Xorazm viloyati

**"Do'stlik" ordeni bilan**

**Bulokova Dilfuza Xotamovna** — Oqdaryo tumanidagi "Chorbog'" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Samarqand viloyati  
**Janisboyeva Aliya Mexmonkulovna** — Bo'ka tumani 9-oilaviy poliklinikasining

"Samarqand" mahalla fuqarolar yig'iniidagi patronaj hamshirasi, Toshkent viloyati

**Inagamov Jovdatxon Sultanovich** — O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari

**Lutfillayeva Salima Boymirzayevna** — Namangan shahar obodonlashtirish bosh-qarmasining "Chorsu", "Ozod" va "G'ishtko'prik" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ko'kalamzorlashtiruvchi — gul ekuvchisi, Namangan viloyati

**Masharipov Yusupbay Ataxanovich** — Ellikqal'a tumanidagi "Sharq yulduzi" ovul fuqarolar yig'ini Yangi O'zbekiston ko'chasi biyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

► Davomi 2-beta

## SAMIMIY QUTLOVLAR

Butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan, ruhiy poklik, mustahkam imon, mehr-oqibat, rahm-shafqat, birodarlik va birdamlik kabi yuksak qadriyatlarimiz o'zida mujassam etgan Ramazon oyi hamda muborak Iyd al-Fitr bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, yirik xalqlar va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli din va jamoat arboblardan samimiy qutlovlar kelmoqda.

Tabriknomalarda ko'p millatli O'zbekiston xalqiga tinchlik, totuvlik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etilib, mamlakatimiz bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlash va kengaytirishga intilish qat'iy ekanı bildirilgan.

Xususan, quyidagilar o'z tabriklarini yo'llagan:  
Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon bin Abdulaziz Ol Saud**;  
Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi **Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz Ol Saud**;  
Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog'an**;  
Qozog'iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev**;  
Qirg'iz Respublikasi Prezidenti **Sadur Japarov**;  
Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon**;  
Turkmaniston Prezidenti **Serdar Berdimuhamedov**;  
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti **Ilhom Aliyev**;  
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon**;  
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum**;  
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon**;  
Misr Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi**;  
Eron Islom Respublikasi Prezidenti **Mas'ud Peshkhiyon**;  
Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti **Asif Ali Zardoriy**;  
Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri **Shahboz Sharif**;  
Kuvayt Davlati Amiri **Shayx Mish'al al-Ahmad al-Jobir as-Saboh**;

Kuvayt Davlati Valiahdi **Shayx Saboh al-Holid al-Hamad as-Saboh**;  
Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II**;  
Hindiston Respublikasi Bosh vaziri **Narendra Modi**;  
O'mon Sultoni **Haysam bin Toriq Ol Said**;  
Bahrayn Podshohi **Shayx Hamad bin Iso al-Xalifa**;  
Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti **Abdulmajid Tabbun**;

Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas**;  
Liviya Davlati Prezident kengashi rahbari **Muhammad Yunus al-Manfi**;  
Afg'oniston Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi **Mulla Muhammad Hasan Oxund**;


**Komor orollari Ittifoqi Prezidenti** G'azaliy Usmoniy;  
Isroil Davlati Prezidenti **Isxak Gersog**;  
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori **Holid al-Ananiy**;

Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Nurlan Yermekbayev**;  
Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori **Ularbek Sharsheyev**;  
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev**;  
Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi **Binali Yildirim**;

Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha**;  
Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (ICESCO) bosh direktori **Salim al-Malik**;  
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Asad Xon**;  
Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi **Jasim Muhammad al-Budayviy**;

Kavkaz musulmonlari idorasi raisi Shayxulislam **Ollshukur Poshozoda**.

Tabriklar kelishda davom etmoqda.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

# SAMARQANDNING EZGULIK VA MA'RIFAT NURINI TARATUVCHI QUTLUG' DURDONASI

## Boshlanishi 1-betda

Xususan, majmua huzurida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo etildi. Jumladan, 1 ta to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxona, 176 o'rinni 22 ta oilaviy mehmon uyi hamda avtoturargoh qurilgan. Mazkur obyektlar to'liq kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanib, hududida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Natijada Imom Buxoriy majmuasi ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, hozir kuniga 65 ming ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega.

Majmuaning o'zi Samarqand, yangi O'zbekistonning durdonasi bo'lib qad rostladi. Uning maydoni 45 gektarni tashkil etadi. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli, milliy uslubdagi muhtasham ayvon qurildi.

Majmua tarkibida eng ilg'or axborot texnologiyalari asosida 9 pavilyondan iborat noyob innovatsion muzey barpo etildi. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e'tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qur'oni karimda ismlari zikr qilingan 25 payg'ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, hadislarining jamlanishi va yozilishi haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgan.

Qadamjoda 14 ta moviy gumbaz, 75 metrli 4 ta minora unga ulug'vor qiyofa bag'ishlab turibdi.

Davlatimiz rahbari turizm markazi va masjidga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

**Bir yarim ming yillik islom tarixini, ilm-ma'rifatini yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olimu ulamolarning nomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu kunlarda rasman ochilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi.**

Butun musulmon olamida hadis ilmi haqida gap ketsa, hech shubhasiz, bizning diyorimiz birinchilar qatorida tilga olinadi. Chunki Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk hadisshunos olimlar aynan mana shu zamin farzandlaridir.

Xususan, Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" kitobi dunyoda tan olingan eng mo'tabar oltita hadis kitobining biridir. O'n yoshidan boshlab hadis ilmini o'rgangan alloma bobomiz 20 dan ortiq asar yozgan. Ular to hanuz dinu diyonatimizni mustahkamlash yo'lida islom ummatiga xizmat qilib kelmoqda.

**Prezidentimiz har gal Samarqandga kelganida majmuaning qurilish jarayoni bilan tanishib, bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma'rifati, tarbiya va ibrat maskani bo'lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezu namuna bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.**

— Ushbu betakror qurilish yangi O'zbekistonning ulkan imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ziyoratgoh xalqimiz uchun, jahondagi barcha musulmonlar uchun ezgulik va ma'rifati nurini taratadigan qutlug' maskanga aylanadi deb ishonaman. Aminmanki, bu dargohni ziyorat qilib, uning ma'naviy muhitidan bahramand bo'lgan inson, ayniqsa, yoshlar islom dinining asl ma'nosini anglab yetadi, to'g'ri yo'ldan adashmaydi, — dedi Prezidentimiz.

Shuning uchun Imom Buxoriy majmuasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, uni chinakam tarbiya va ibrat maktabiga aylantirish, bu yerda imom-xatiblar, mahalla faollari uchun malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Bu yerdagi barcha ishlar yakuniga yetganini hisobga olib, yangi qurilgan muhtasham masjidga Hayit namozini ado etish taklif qilindi, bu mo'min-musulmonlarimiz, butun el-yurtimizdagi ko'nglidagi ish, xalqimizga munosib Ramazon sovg'asi bo'lishi qayd etildi.

Imom Moturidiy yodgorlik majmuasi ana shunday manzil va mislsiz boyligimizdan biri.

Prezidentimiz ushbu majmuada amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga muvofiq, o'tgan yili yurtimizda aqida ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Samarqand shahridagi Chokardiza qabristoni hududida Imom Moturidiy majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirishga kirishilgandi.

Ayni paytda majmua va uning atrofida qurilish-obodonlashtirish davom etmoqda. Umumiy maydoni 10,2 gektar bo'lgan hududda Imom Moturidiy majmuasini qayta qurilib, 250 o'rinni masjid, kirish peshtoqi, kutubxona, muzey va avtoturargoh bunyod etilmoqda.

Shuningdek, qurilish ishlari jarayonida Chokardiza qabristonida buyuk faqih Burhoniddin Marg'inoniy dafn etilgan joy ham aniqlanib, bu yerda maqbara qurilmoqda.

Avvalo, allomalar yodga olinib, Qur'on tilovat qilindi.

Davlatimiz rahbari bunyodkorlik ishlarni ko'zdan kechirib, ushbu maskan dunyo musulmonlari talpinadigan ziyorat manzillaridan biri ekanini qayd etdi, bu yerda ular uchun zamon talablariga mos sharoit yaratish zarurligini ta'kidladi.

— Majmuaga kelgan kishi, avvalo, Imom Moturidiy bobomizning ilmiy-ma'naviy merosi, islom olamida tutgan mavqei haqida yorqin tasavvurga ega bo'lishi, allomaning ma'rifatparvar qarashlari bugun ham dolzarbligini his qilishi kerak, — dedi Prezidentimiz.

Qurilishni sifatli va o'z vaqtida bajarish, hududda yashil maydonlarni ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Samarqand shahridagi Hazrati Hizr majmuasida bo'lib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasini ziyorat qildi.

Qur'on o'yatlarini tilovat etilib, duo o'qildi. Bugungi ayyom kunlarida ulug' ajdodlarimiz va bu dunyodan o'tgan yaqinlarimizni yod etish, ularning ezu ishlarni eslash xayrli amallardan ekani ta'kidlandi.

Shu bilan Prezidentimizning Samarqand viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Dilshod ULUG'MURODOV, Avazbek XUDOYQULOV, "Yangi O'zbekiston" muxbirlari**

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

# MAHALLA TIZIMI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH YURTDOSHLARIMIZNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

## Boshlanishi 1-betda

**Raxmonov Erkin Xolliyevich** — Angor tumanidagi "To'liq" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Surxondaryo viloyati

**Xaziratkulov Baxodir Mirzayevich** — Guliston tumanidagi "Sharq haqiqati" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Sirdaryo viloyati

**Yuldasheva Marxabo O'mirovna** — Forish tumanidagi "Xonbandi" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli, Jizzax viloyati

## II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

**Allayeva Zulfiya Hazratqulovna** — Shahrisabz tumanidagi "Miraki" mahalla fuqarolar yig'ini maslahat guruhi rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Saatova Zulayxa Ochilovna** — Toshkent shahar bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchisi, bosh otinoyisi

**Toshlanova Xodisaxon Otajonovna** — Paxtaobod tumanidagi "Ma'rifat" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Andijon viloyati

**Enazarov Izzatilla Saibovich** — "Nuroniy" jamg'armasining Buyvada tumani bo'limi raisi, Farg'ona viloyati

## II darajali

### "Salomatlik" ordeni bilan

**Aydarova Juldizay Razakovna** — Konimex tumani 6-oilaviy poliklinikasining "To'qqiztepa" mahalla fuqarolar yig'indagi oilaviy shifokori, Navoiy viloyati

### "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan

**Axmudov Sanjar Baxtiyorovich** — Romitan tumani ichki ishlar bo'limining "Qumrabort" mahalla fuqarolar yig'indagi profilaktika katta inspektori, Buxoro viloyati

**Mamadjonov Donyorbek Ikromjon o'g'li** — Mingbuloq tumani ichki ishlar bo'limining "Birlashgan" mahalla fuqarolar yig'indagi profilaktika katta inspektori, Namangan viloyati

### "Jasorat" medali bilan

**Xayitov Sayitnazar Atokulovich** — Ishtixon tumanidagi yakka tartibdagi

tadbirkor, temirchi usta, Samarqand viloyati

**Yuldasheva Moxidil Shadmanbekovna** — Andijon shahridagi "Yaxshi" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli, Andijon viloyati

### "Sog'lom turmush" medali bilan

**Yodgorov Ulugbek Baxtiyorovich** — Dang'ara tumanidagi "Firdavs Yunusov" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Farg'ona viloyati

**Turabova Lutfiya Normuminovna** — Paxtachli tumanidagi 4-oilaviy bolalar uyi rahbari, Samarqand viloyati

**Yuldasheva Muyassar Tairovna** — Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Oqibat" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Toshkent shahri

### "Kelajak bunyodkori" medali bilan

**Abdullayev Yigitli Saydullo o'g'li** — Jarqo'rg'on tumanidagi "Young Adults" o'quv markazi direktori, Surxondaryo viloyati

**Ahmadov Sirojiddin Sodiq o'g'li** — Guliston shahridagi "Ibratli" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi, Sirdaryo viloyati

**Muxitdinov Nizomiddin Najmiddin o'g'li** — Zangiota tumanidagi "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi, Toshkent viloyati

**Xolmatov Mehrojbek Erkin o'g'li** — Chilonzor tumanidagi "Tirsakobod" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi, Toshkent shahri

### "Shuhrat" medali bilan

**Axmudov Qilichbek Dadarpariyevich** — Oltiariq tumani "Zilol" mahalla fuqarolar yig'indagi hokim yordamchisi, Farg'ona viloyati

**Bayjanova Maqsuda Xudayberganovna** — Urganch tumani soliq inspeksiyasining

## O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2026-yil 19-mart

## SH. MIRZIYOYEV



## Munosabat



### Ravshan FOZILOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

**Xalq bilan muloqot hayotdagi muammolarni oydinlashtiradi. Shu bois, mamlakatimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, odamlar orasida yurib, ularning dardu-tashvishlariga sherik bo'lish, fikr-mulohazalarini eshitib, muammolarini tekzor va samarali hal etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.**

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining ilk yillardanoq ishini xalq ko'ngliga yo'l topishdan boshladi. Aholi bilan yuzma-yuz muloqot qilib, dardini eshitdi. Odamlarni qiynayotgan

# XALQ BILAN MULOQOT — MUAMMOLAR YECHIMINING SAMARALI YO'LI

muammolarni uyma-uy, xonadon-xonadon kirib aniqlash tizimini yo'lga qo'ydi. Xalqimiz og'irini yengil qilish, uni o'yantirayotgan masalalarga yechim topish bo'yicha vazir va hokimlar mahalla darajasida ishlaydigan tizim yaratildi.

Prezidentimiz qayerga bormasin, aholi bilan uchrashib, ularning xohish-istaklari, qiziqishlari, duch kelayotgan muammolariga alohida e'tibor berdi. Xalqning og'irini yengil qilish, odamlarni hayot darajasi va sifatini yaxshilash islohotlarining bosh maqsadi etib belgilandi. Shu orqali odamlar qalbiga yo'l topilib, ularning ruhiyatida katta o'zgarish yuz berdi.

Joylarda barcha darajadagi rahbarlar bilan jonli muloqotlar va sayyor qabullar yo'lga qo'yilgani fuqarolarda muammolarini hal qilish imkonligiga katta umid va ishonch uyg'otdi. Davlat idoralarning aholi ehtiyojlariga va talablari asosida ishlashni boshlagani natijasida aholini ko'p yillardan buyon o'yantirib kelayotgan muammolar qisqa fursatda hal etildi.

So'nggi to'qqiz yilda nafaqat odamlarning har laha og'ir tegirmon toshidek yelkasida yuk bo'lib kelgan eng katta dardu tashvishlari aridi, balki xalq hayotidan uzilib qolgan ayrim rahbarlar ularning ichida yurishga, fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, dardu tashvishi bilan yashashga o'rgandi. Rahbarlar va fuqarolar o'rtasidagi muloqot umuman boshqacha ko'rinish kasb etdi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirib, ulami aholiga yaqinlashtirdi.

Ayniqsa, barcha soha va yo'nalishlar bo'yicha "mahallabay" ishlash tizimi joriy etilgani mahallalarda tadbirkorlik keng rivojlanib, yangi ish o'rnlari, doimiy daromad manbalari yaratilishiga, barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit mustahkamlanib, jinoyatchilik kamayishiga zamin yaratdi. Bugun ko'plab masalalar tuman yoki viloyat markaziga borib emas, balki shu yerning o'zida bartaraf etilayotgani odamlarning ham vaqtini, ham xarajatini tejamoqda.

Darhaqiqat, xalq bilan muloqot, odamlarni rozi qilish yangi O'zbekiston siyosatining falsafasiga aylandi. "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi tarixiy islohotlar oddiy insonlar hayoti, kundalik turmushida aks etmoqda. Fuqarolar ong-tafakkurida kechayotgan o'zgarishlar esa yurtimizning qiyofasida in'ikosini topmoqda.

Hozirgi kunda xalqimiz mamlakatimiz rahbarining insonparvar siyosatidan rozi bo'lib yashamoqda. Yurtimizdagi barcha o'zgarishlar, yangilanishlarni o'z kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda. Inson qadriini ulug'lashdek buyuk maqsadga qaratilgan islohotlar sababi

**"Davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch, ochiqlik va hamkorlik jamiyat rivojining mustahkam poydevorini yaratadi. Shuning uchun har bir rahbar xalq dardini eshitishni, uning muammolariga yechim topishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olishi zarur.**



turmushimiz tubdan o'zgarib, inson qadr-qimmatini sharaflanmoqda.

Birgina joriy yilda mahallalarda infratuzilma va aholi turmushini yaxshilashga 56 trillon so'm ajratilayotgani ichki yo'llarni ta'mirlash, elektr, gaz va suv ta'minotini yaxshilash, tadbirkorlik uchun zarur sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu mablag'lar aholi hayotiga ijobiy ta'sir qilib, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rnlarni yaratish, har bir insonning farovon hayot kechirishiga zamin hozirlaydi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini

takomillashtirishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ushbu yo'nalishdagi ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha galdagi muhim vazifalar belgilab berildi.

Qayd etilganidek, bundan buyon "Har bir inson va xonadon muammosini bilib, vaqtida ko'mak berishim kerak" degan shior barcha darajalardagi rahbarlar faoliyatida bosh qoida bo'lishi shart. Zer, tizimdagi har bir murojaat ortida bir inson taqdiri, uning davlatga bo'lgan umidi va ishonchi yotibdi. Bu shior barcha rahbarlarni xalq ichiga kirib, odamlar bilan ochiq suhbat qilishga, muammolarini tinglab, hal qilish choralarini ko'rishga chorlaydi. Agar ular har bir xonadon holidan xabar olib tursa, jamiyatda adolat va ishonch kuchayadi. Bu esa ularni xalqqa yaqin bo'lishga, odamlarning dardini his qilishga va ularga o'z vaqtida amaliy yordam berishga turki beradi.

Yig'ilishda energetika, yo'l va suv infratuzilmasi bo'yicha 2025-yilda yuborilgan murojaatlar 109 mingdan oshgani aytildi. Joriy yilda bu masalalarni hal qilish uchun 20 trillon so'm ajratilgani ayni muddao bo'ldi. Bu mablag' hududlardagi kamchiliklarni bartaraf etish, infratuzilmani yaxshilash va odamlarning kundalik hayotini yengillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz tomonidan yo'lga qo'yilgan "Tashabbusli budget" dasturi budget sarfi jarayonining shaffof va ochiqligini ta'minlash, mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu dastur mahalla aholisining og'irini yengil qilishda ham yuqori samara berayotir.

Ammo infratuzilma yuzasidan 25 mingta ariza kelib tushgan 2 mingta mahalla biror marta ham ushbu dasturda loyiha joylashtirmagani achinarlidir. Bu masalaga ham alohida

e'tibor qaratilgan ekan, mutasaddilarga Xalq qabulxonalarga kelgan murojaatlarni tahlil qilgan holda bunday mahallalarga loyiha tayyorlashda ko'maklashish vazifasi qo'yildi. Bu esa biz deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Xalq vakillari sifatida ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini olib borishimiz lozim bo'ladi.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgarimoqda, odamlar ham zamon bilan hamnafas yashab, haq-huquqlarini yanada teranroq anglab yetmoqda. Bu esa murojaatlar bilan ishlash tizimini o'zgartirish vaqti kelganini ko'rsatadi. Xalq qabulxonalari faqat ariza qabul qiluvchi idora emas, balki soha va joylardagi muammolarga ularga tegishli mas'ul idoralarning e'tiborini tortadigan, ular bilan birgalikda tahlil va yechim taklif qiladigan markazga aylantirilishi uzoqini ko'zlab qilingan eng to'g'ri va oqilona qaror bo'ldi. Bu aholi murojaatlarini tekzor va sifatlil ta'minlash, odamlarning ertangi kunga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga zamin yaratadi.

Davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch, ochiqlik va hamkorlik jamiyat rivojining mustahkam poydevorini yaratadi. Shuning uchun har bir rahbar xalq dardini eshitishni, uning muammolariga yechim topishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olishi zarur.

Bugun jamiyatdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, aholi bilan yaqindan muloqot qilishda xalq vakillari bo'lgan deputatlarimiz o'mi va roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ilgari deputatlar o'z saylovchilari bilan yilda ikki yoki uch marta muloqot qilgan bo'lsa, bugungi kunda bu boradagi ishlar muhtazamlik kasb etib, xalq noiblari har o'ning oxirgi haftasini o'z saylov okrugini o'tkazmoqda. Bu joylarda saylovchilarni qiyin kelayotgan muammolarini aniqlash va o'z vaqtida hal etish, odamlarning dardu tashvishlarini tinglashida muhim omil bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan dolzarb masalalar, bildirilgan tashabbuslar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan, biz deputatlar faoliyatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan xalq bilan muloqot tamoyiliga e'tiborimizni yanada kuchaytirishimiz, har bir masalani "mahallabay" va "xonadonbay" tahlil qilish orqali inson qadriini amalda ta'minlashimiz lozim. Bularsiz yurtdoshlarimiz qalbidagi shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini mustahkamlash qiyin.



# TAMADDUN



**Mamlakatimizning uch ming yillik shonli tarixi va boy madaniyatining, Yangi O'zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko'zgusi bo'lgan ushbu betakror va buyuk majmua barchamizga, butun xalqimizga muborak bo'lsin!**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# tafakkuri



## “YANGI O‘ZBEKISTON” GAZETASIDA YANGI LOYIHA — “TAMADDUN TAFAKKURI”

Jamiyat ma'naviy qudratga erishganida mamlakat mislsiz yuksalishga erishadi. Bu qudrat tarixiy ildizdan kuch olib, ertangi kunga bo'lgan ishonch bilan mustahkamlanadi. Yangi O'zbekistondagi islohotlar xalqimiz qalbiga ana shunday tarixiy kuchni va barcha sohada birdek ilg'or rivojlanish ishtiyoqini taqdim etmoqda. Buni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining buniyod etilishi ham tasdiqlaydi.

Ushbu muhtasham durdonaning Bosh me'mori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida ilm-fan va madaniyat fidoyilariga, xususan, jurnalistlarga murojaat qilib: “Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin!

Ushbu muhtasham durdonaning Bosh me'mori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida ilm-fan va madaniyat fidoyilariga, xususan, jurnalistlarga murojaat qilib: “Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Ushbu muhtasham durdonaning Bosh me'mori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida ilm-fan va madaniyat fidoyilariga, xususan, jurnalistlarga murojaat qilib: “Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Ushbu muhtasham durdonaning Bosh me'mori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida ilm-fan va madaniyat fidoyilariga, xususan, jurnalistlarga murojaat qilib: “Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Ushbu muhtasham durdonaning Bosh me'mori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimida ilm-fan va madaniyat fidoyilariga, xususan, jurnalistlarga murojaat qilib: “Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

etadigan tahliliy maqolalar, olimlar, soha mutaxassislarining chiqishlari berib boriladi. Bu bilan shonli tariximizdan so'zlovchi eng noyob eksponatlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni, ilmiy markazning Uchinchi Renessansni yaratishdagi o'rni va ahamiyatini xalqchil yoritib borishga harakat qilamiz.

Maqsadimiz — bu ma'lumotlarni o'qigan xalqimiz Islom sivilizatsiyasi markazini borib ko'rishga, qadim tariximiz bilan faxrlanib, porloq kelajagimizga ishonchi yanada mustahkamlanishiga xizmat qilsin. Muhtasham ma'rifat qasriga tashrif buyurganlar esa gazetamizdagi maqolalar, ma'lumotlar bilan tanishib, uni qaytadan kashf etsin.

Ushbu chiqishlarning ommabopligini ta'minlash maqsadida tahririyatimizning rasmiy [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz) veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi [t.me/yuz\\_official](https://t.me/yuz_official), [fb.com/yuz.uzNews](https://fb.com/yuz.uzNews), [instagram.com/yuz.uz\\_news](https://instagram.com/yuz.uz_news), [youtube.com/@YUZ](https://youtube.com/@YUZ) sahifalarida ham video va foto lavhalar, subhatlar, reportajlar, tahliliy va axboriy materiallar tizimli ravishda berib boriladi.

Zero, butun dunyoni lol qoldirayotgan ushbu muhtasham maskan falsafasini baland pardalarda tarannum etish barchamizga, shu jumladan, bizning tahririyat jamoasiga ham g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Tahririyat

## MARKAZNING BUNYOD ETILISH KRONOLOGIYASI

**2017-YIL 21-APREL.** Prezidentimiz Hazrat Imom (Hastimom) majmuasiga tashrifi chog'ida mazkur hududda Islom madaniyat markazini barpo etish g'oyasini ilgari surdi.

**2017-YIL 19-SENTABR.** Prezidentimiz BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi buniyod etilayotgan haqida ma'lum qildi. Muqaddas dinimiz egulik va tinchlik, asl insoniy fazilatlarini asrab-avallash, ilm-ma'rifatga da'vat etishini, uni zuravonlik va qon tukish bilan bir qatorda quyadiganlar bilan murosa qilib bilmaligini qat'iy ta'kidladi.

**2018-YIL 15-IYUN.** Prezidentimiz Islom sivilizatsiyasi markazi poydevoriga ramziy tamal toshi qo'ydi hamda uning buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini targ'ib qiluvchi yetakchi muassasa bo'lishiga umid bildirdi.

**2019-YIL 20-NOYABR.** Mamlakatimiz yetakchisi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markaziga yana bir bor tashrif buyurdi.

**2021-YIL 29-YANVAR.** Prezidentimiz Islom sivilizatsiyasi markazida bajarilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi. Tashrif chog'ida ushbu konsepsiyaning taqdimoti o'tkazildi.

**2022-YIL 8-APREL.** Ramazon kunlarida davlatimiz rahbari ushbu majmuaga yana

tashrif buyurdi. Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib, ko'rkam va sifatli qilib qurish bilan birga majmuaning mazmuniga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

**2025-YIL 29-YANVAR.** Davlatimiz rahbari Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan buniyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Qurilish ishlari va ekspozitsiya bilan tanishish jarayonida Prezidentimiz markaz faoliyatini tashkil etish, uning ma'no-mazmunini yanada boyitish va takomillashtirish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berdi.

**2025-YIL 29-AVGUST.** Prezidentimiz markazga tashrif buyurib, so'nggi pardoqlash va jihozlash ishlari ko'zdan kechirdi.

**2025-YIL 20-OKTABR.** Davlatimiz rahbari Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu yerdagi ekspozitsiyalar orqali xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosini keng namoyish etishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi.

**2026-YIL 24-FEVRAL.** Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvida markaz Ramazon hayiti arafasida ochilishi ma'lum qilindi.

**2026-YIL 17-MART.** Mamlakatimiz rahbari Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, 8 yillik buniyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Ushbu noyob majmuani rasman ochib berdi.

## Yangi O'zbekiston orzusi



**Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR,**  
**O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy**

Alloh taolaga behisob hamdu sanolar bo'lsinkim, yurtimizda keyingi yillarda ma'naviy hayotimiz yuksak pog'onalarga ko'tarilib, muqaddas dinimiz qadriyatlariga e'tibor tobora ortib bormoqda. Ana shunday ulug' va tarixiy voqealardan biri — Islom sivilizatsiyasi markazi buniyod etilib, foydalanishga topshirilishi xalqimiz uchun chinakam ulkan ma'naviy bayram, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

## ZAKOVAT VA YUKSAK MADANIYATNING MUSTAHKAM ILDIZLARI

Bu muhtasham maskan yurtimizning boy tarixi, bebaho ma'naviy merosi, asrlar davomida shakllangan ilm-ma'rifat an'analari yorqin timsoli sifatida barpo etildi. Zero, muqaddas dinimiz insonni doimo ilmga, ma'rifatga, egulik va komillikka chorlab keladi. Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan oyatidayoq “Iqro!”, ya'ni “O'qi!” deb amr qilingani

ham bu yo'lning naqadar ulug' va sharafli ekanini ko'rsatadi. Markazning Ulug'bek darvozasi peshqoqiga ushbu muborak oyat muhlab qo'yilgani zamirida ham mana shunday chuqur ma'no-mazmun mujassam.

Davomi 4-beda

## Buyuk o'zbek yo'li



**Salim DONIYOROV,**  
**O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist**

Biz uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega xalqimizning eng baxtli vakillarimiz. Zero, ne-ne ajdodlarimiz orzu qilgan katta tarixiy voqelikni boshdan kechiryapmiz. Yangi O'zbekiston g'oyasi atrofida birlashib, Uchinchi Uyg'onish davrining poydevori yaratilishi jarayonida ishtirok etaymiz. Buni anglash, bilish uchun mamlakatimizdagi islohotlarni tahlil qilish kerak.

## ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI — ILM, MA'NAVIYAT VA UYG'ONISH MEHVARI

Bugun biz, hech shubhasiz, ko'p millatli xalqimiz bilan birgalikda yangi O'zbekistonning yangi tarixini yarataymiz. Gap shundaki, Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan buniyod etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining mazmun-mohiyatini teranroq anglab borar ekanimiz, ushbu markazni taraqqiyot yo'limizning yangi bosqichi, deysiz mumkin.

Uch ming yillik davlatchilik tariximizning qat-qatlarida yashirinib yotgan millatimizning so'nmas dahosi keyingi o'n

yillik taraqqiyotimiz bosqichida yana qayta bo'y ko'rsata boshladi. Bu evrilish davri O'zbekiston Lideri Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda boshlangan mega loyiha — Islom sivilizatsiyasi markazi buniyod etilishi orqali ajdodlarimizning orzulari, armonlari ro'yobga chiqqani bilan izohlash mumkin bo'ladi. Shuning o'ziyoq yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Davomi 5-beda



# ZAKOVAT VA YUKSAK MADANIYATNING MUSTAHHAM ILDIZLARI

## Boshlanishi 3-betda

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, biz yurtimizda rivojlangan davlat, erkin jamiyat poydevorini bunyod etish uchun, eng avvalo, ilm va ilm, ta'lim va yana bir bor ta'lim degan oliy maqsadni hayotimizga joriy etmoqdamiz. Shu ma'noda, Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni o'rganish va targ'ib etishga xizmat qiladigan ilmiy-ma'rifiy dargoh, ayni vaqtda o'timish va bugunni, an'ana va taraqqiyotni, ma'naviyat va zamonaviylikni o'zaro uyg'unlashtirgan nodir maskan bo'lishiga iymonimiz komil.

Yurtimiz zamini azal-azaldan ilm-ma'rifat, zakovat va yuksak madaniyat beshigi o'laroq dunyo tamaddunida alohida o'rin tutadi. Movarounnahr diyorida yetishib chiqqan buyuk allomalar, muhaddislar, mufassir va mutafakkirlar insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy merosi asrlar davomida nafaqat islom olami, balki jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, hadis ilmining sultoni bo'lgan Imom Buxoriy, buyuk muhaddis Imom Termiziy, aqida ilmining zabardast namoyandasi Imom Moturidiy, shuningdek, astronomiya, tibbiyot, matematika va boshqa fan sohalarida yuksak natijalarga erishgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' zotlarimiz nomi jahon ilm osmonida yorqin yulduzlar kabi porlab turibdi.

Rasululloh sallaallohu alayhi vasallamning "Ilm izlash har bir musulmon uchun farzdir", degan muborak hadislar ham bu yo'ning naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois, yurtimizda ilgama hurmat, ulug' zotlarga ehtirom va ular qoldirgan ulkan merosni asrab-avaylash azaliy qadriyatlarimizdan. Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilgan esa ajdodlarimiz qoldirgan ana shu bebaho ilmiy va ma'naviy durdonalarni yanada chuqur o'rganish, keng targ'ib etish, jamoatchilikka va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish yo'lida muhim qadam bo'ldi.



**“ E'tiborli jihati shundaki, mazkur Mus'haf markazda O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan bir makonda joylashtirildi. Bu qarorda ham chuqur ma'no mujassam: ilohiy kalom bilan diniy idora faoliyatining bir-biriga uyg'un holda bo'lishi islom an'analariga to'la mutanosibdir. ”**

Muhtasham maskanga qadam qo'ygan har bir inson, avvalo, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros, ularning beqiyos ilmiy va ma'rifiy faoliyati, bu yerda

jamlangan manbalar, qo'lyozmalar va ilmiy ekspozitsiyalar bilan tanishar ekan, qalbida o'ziga xos iftixor va mas'uliyat tuyg'usi uyg'unlashib tabiiy. Prezidentimizning "Ushbu

markaz ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyatimiz uchun fundamental baza bo'ladi. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalarini yuqori kurslarni

shu yerda o'qiydi, o'qituvchi-domlalar esa o'z bilim va malakasini oshiradi. Markaz yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug'beklar, farg'oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyilar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lishi kerak", deya ishonch bildirishi bejiz emas, albatta. Demak, markaz o'z mohiyati va mazmuni bilan o'timish va bugunni o'zaro bog'lab turgan ma'naviy ko'priklar vazifasini bajarmog'iga shubha yo'q. Ayniqsa, markazda Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlariga oid boy tarixiy va ilmiy manbalar jamlangani yurtimiz zaminida kechgan buyuk Uyg'unish davrlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bugungi kunda ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g'oyasi naqadar mustahkam ildizlarga ega ekanining yaqqol namoyonidir.

Muqaddas Qur'on zali esa ushbu muhtasham maskanning haqiqiy qalbi sifatida alohida ma'naviy-ruhiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yerda butun insoniyat uchun hidoyat manbai bo'lgan ilohiy kalom — Qur'oni karimning eng qadimiy va nodir nusxalaridan biri bo'lgan mo'tabar Usmon Mus'hafi joylashtirilgan. Ushbu muqaddas kitob asrlar davomida turli zamon va makonlar osha necha-necha tarixiy sinovlarga guvoh bo'lgan bebaho merosdir. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, XIV asr oxirlarida Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan ushbu Mus'haf bir necha asr davomida asrab-avaylangan.

Keyingi yillarda Usmon Mus'hafi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Mo'yi muborak madrasasida saqlanib keldi. Allohning inoyati va yurtimiz rahbarining tashabbusi bilan 2025-yil 13-noyabr kuni bu noyob va muqaddas kitob Islom sivilizatsiyasi markazining muqaddas Qur'on zaliga olib kelinib, o'zining yuksak maqomiga munosib sharofati o'ringa qo'yildi. Bu esa, shubhasiz, yurtimizda muqaddas dinimizga, uning ilohiy manbasiga bo'lgan yuksak ehtirom va sadoqatning yorqin ifodasidir.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur Mus'haf markazda O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan bir makonda joylashtirildi. Bu qarorda ham chuqur ma'no mujassam: ilohiy kalom bilan diniy idora faoliyatining bir-biriga uyg'un holda bo'lishi islom an'analariga to'la mutanosibdir.

Shuningdek, Prezidentimiz topshirig'iga binoan, ushbu zal devorlarida Qur'oni karim oyatlari tushirilgan sakkizta ipak gilamning o'rt ravoqda joylashtirilgani ham zalning ma'naviy muhitini yanada boyitgan. Bu gilamlar go'yoki ilohiy kalomning go'zal ifodasi sifatida qalblarga nur ulashadi, insonni tafakkurga, ibrat olishga chorlaydi. Zero, Qur'oni karimda: "Albatta, bu Qur'on eng to'g'ri yo'lga hidoyat qilur va yaxshi amallarni qiluvchi mo'minlarga, albatta, o'shalarga, ulug' ajr borligi xushxabarini berur", deb marhamat qilingan. Darhaqiqat, bu muqaddas kitob insoniyat uchun hidoyat, qalblar uchun shifo, ifitxor va umid tuyg'ularini yanada mustahkamlayotganini shohid bo'lib turibmiz. Yaratan Robbimizga hamdlar bo'lsin, ana shunday xayrli ishlar yurtimizda keng quloq yoymoqda. Minglab, millionlab yurdoshlarimiz bugun qo'lib, Vatanimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, egzu ishlar bardavom bo'lishi uchun duo qilmoqdalar. Bu duolar, inshaalloh, ijobat bo'lib, diyorimizda yanada ko'proq baraka va fayz-zarafshonlik qaror topadi.

Shu o'rinda barcha ulamo va mo'min-musulmonlar nomidan yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohadaagi ulkan islohotlar, muqaddas qadamjolarini obod etish, islom qadriyatlarini asrab-avaylash yo'lida ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik uchun davlatimiz rahbariga samimiy minnatdorlik izhor etamiz. Bu kabi egzu ishlar, shubhasiz, xalqimiz qalbidagi chuqur ehtirom va rozilik tuyg'ularini uyg'otmoqda.

Alloh taolodan mana shunday muborak Hayit ayyomlarida duo qilib so'raymiz, yurtimiz tinch va osoyishta bo'lsin, xalqimiz farovon va baxtli yashasin, amalga oshirilayotgan barcha xayrli ishlarga O'zi baraka ato etsin. Yurtimizga ko'z tegmasin, el-yurtimiz osmoni musaffo, barchamizning egzu niyatlarimiz ijobat bo'lsin. Alloh taolo doimo diyorimizni tinchlik va xotirjamlik ne'mati ila siylasin.

## DUNYONING NUFUZLI 10 MUZEYI RO'YXATIGA KIRITILGAN MUHTASHAM MAJMUUA HAQIDA MUHIM MA'LUMOTLAR



Salkam 10 gektar mайдonda barpo etilgan majmuaning uzunligi 161 metr, eni 118 metr, gumbazining balandligi 65 metr. Binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi.

**Ekskursovodlar jamoasi:**  
30 dan ziyod. O'zbek, rus, ingliz, arab, fransuz, turk va koreys tillarida ekskursiya xizmati mavjud.



Muqaddas Ka'ba yopinchig'i (kisva) ning 2025-yili Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud O'zbekiston rahbariga tuhfa qilgan parchasini ko'rish mumkin.



Audio, video resurslar uchun zamonaviy qurilma — Sonic chair texnologiyasi nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham ilk marotaba markaz kutubxonasiga o'rnatildi.

**Ekspozitsiyalarning ichki montaj ishlariga** "Magister Art", "Outdoor Factory", "Sila Sveta", "Avesta", "Planeta 9", "Top Congress" kabi mahalliy va xorijiy kompaniyalar jalb etilgan.



Xalqaro ilmiy hamkorlik: ICESCO, IRCICA, TURKSOY singari xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, shuningdek, turli xorijiy davlatlarning ilmiy-tadqiqot institutlarini joylashtirish rejalashtirilgan.



Qur'oni karim zali: 4 ta ravoqda 8 ta ipak gilam namoyish etilgan. 65 metr balandlikdagi gumbaz ostida qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan 50 tonnalik yirik qandil o'rnatilgan.



Kutubxonaning umumiy maydoni 3 ming 105 kvadrat metrni tashkil qiladi. Uning fondi 45 ming 150 tadan ziyod adabiyotni qamrab olgan bo'lib, shundan 2 ming 609 tasi nodir nashrlardan iborat. Kutubxonada ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun alohida dasturlar, printer va qurilmalar o'rnatilgan. Brayl yozuvidagi mingdan ortiq adabiyot olib kelingan.



### XALQARO OAV NIGOHIDA

**Prix Avicenne:** 2025-yili markaz Abu Ali ibn Sino merosini tadqiq va targ'ib etishdagi ulkan xizmatlari uchun Yevropaning nufuzli mukofotiga sazovor bo'ldi. **Smithsonian Magazine:** AQSHning mashhur nashri markazni 2026-yili ochilishi eng ko'p kutilayotgan dunyoning nufuzli 10 muzeyi ro'yxatiga kiritdi. **Prix Versailles:** 2026-yilda markaz jahonning "Eng go'zal muzeylari" global ro'yxatidan joy oldi. **Condé Nast Traveler:** nufuzli nashr markazni 2026-yil iyunda borib ko'rish tavsiya etiladigan eng yaxshi muzeylar qatoriga qo'shdi. **BBC Travel:** markaz dunyo miqyosidagi eng ko'p kutilgan madaniy maskanlardan biri sifatida e'tirof etildi.

# ISLOM SIVILIZATSISIYASI MARKAZI — ILM, MA'NAVIYAT VA UYG'ONISH MEHVARI

## Boshlanishi 3-betda

Ochig'i, markaz haqida gap ketganida, unga nisbatan tarixiy haqiqat, ma'rifat javhari degan ko'plab ta'riflarni keltirish o'rinni. Muhimi, bularning hech biri mubolag'a bo'lmaydi. Ammo yana bir haqiqat bor. Ya'ni eng go'zal ta'riflar ham uning ilm-fan, ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyatini to'la ochib berishga qodir emas.

Mamlakatimiz yetakchisi markazga tashrifi chog'ida "Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan", degan edi. Shu ma'noda markazning mohiyatini, qiymatini to'la anglash uchun uni borib ko'rish, binoning har bir chizgisini, muzeydagi eksponatlarni, ilmiy salohiyatini puxta o'rganib, yurakdan o'tkazib, his etish kerak. Zero, qalb qo'ridan chiqqan har bir fikr, so'z va chizgi yuraklarga yetib boradi.

Shu o'rinda yana bir hayotiy haqiqat. Yaqinda "Yangi O'zbekiston" va "Прва-д Восток" gazetalari tahririyati jamoasi, bir guruh ziyolilar bilan birgalikda Islom sivilizatsiyasi markaziga sayohat qilgan edik. O'shanda majmuadagi uch ming yillik tarixga asos bo'lgan eksponatlar bilan tanishib, tariximiz qanchalik boy ekanini ko'z oldimizga keltirib hayratlandik. Bizdan boshqa mehmonlar ham xuddi shunday hayrat va havas bilan muzeyni tomosha qilar, bir-biriga noyob eksponatlar haqida bilganlarini aytishga oshiqardi. Angladikki, shonli tariximizni o'qib-o'rganish boshqa, uni yaxlit holatda ko'zdan kechirish butunlay sohir tuyg'u berar ekan. Bu fikrni o'shanda majmu mutaxassislari ham tasdiqlab, "Sizlar mehmonsiz, sohingiz boshqa, hatto biz ham muzeyga har safar kelganimizda doim hayratlanamiz", dedi.

Darhaqiqat, sohasi tarixni o'rganish bo'lgan, shu yo'lda ilmiy ishlar qilgan insonlar, markazdan har kuni kamida bitta yangi fikr, fakt topib chiqayotganini aytdi. Shuning o'ziyoq uch ming yillik davlatchilik tariximizni ko'z oldimizga keltirishda markazning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat, markaz faqat muzeydan iborat emas. U yerda eksponatlardan samarali foydalanib, shonli tariximizni o'rganish, ilmiy ishlar qilishga keng imkoniyat bor. Xalqaro ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan bugun O'zbekiston ilm-fanda ham tobora yuksalib borayotganidan dalolat. Zero, yuksak ilmiy nufuzga ega shaxslar va tashkilotlar o'ziga teng

ko'rgan insonlargagina eshik ochadi, hamkorlik qiladi. Quvonarlisi, eng nufuzli xalqaro tashkilot va ta'lim muassasalari markaz bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Boshqalar ham ilmiy doirada aloqalar o'rnatish ishtiyoqi kuchli ekanini ochiq aytayapti. Birgina misol, markazni loyihalash, qurish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa qator mamlakatlardan yuksak malakali mutaxassislar ham faol ishtirok etdi. Buning tub zamirida yangi O'zbekistonning yangilanishlar, yurtimiz ilmiy salohiyatiga tan berish, unga havas qilish bor.

Insoniyat tarixidagi buyuk sivilizatsiyalarning vujudga kelishi solnomachilar tomonidan juda ko'p o'rganilgan. Xalqlar tamadduni qanday bunyod etilishi ilmiy tahlil etilgan. Bugun taraqqiyotga



Avvalo, mamlakatimizda adolatni qaror toptirish uchun xalq bilan muloqot yo'lga qo'yildi. Qisqa vaqtda muloqotning xalqchil, masalalarni joyida hal etishga qaratilgan tizimlari yaratildi. Ayni paytda majburiy mehnatga, bolalar va ayollar haq-huquqlarini himoya qilish amalda samara bera boshladi.

Islom sivilizatsiyasi markazidagi tarixiy eksponatlar va faktlarni o'rganish kishi ajdodlarimiz doim insonni ulug'lab, adolatni qaror toptirish ishtiyoqida yashaganiga amin bo'ladi. Markazning "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori" ekspozitsiyasi zali bilan tanishgach esa ana shu an'ana zamonga mos shaklda yangicha ruh bilan kechayotganini teran anglaysiz. Bu zaldagi yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va, umuman "mahalla yetiligi"ning raqamli "vakillari" sizga bu haqida hikoya qilib beradi.

Shuningdek, mamlakatimiz so'nggi o'n yillikda juda katta iqtisodiy o'sish, sohalaridagi tub evrilishlarga yuz tutdi. Buni izlash uchun

**“ Tarixdan yaxshi ma'lum, eng taraqqiy etgan jamiyatlar ham avvalo ichki birdamlik sabab yuzaga kelgan. Ya'ni qayerda insonni tushunish ustuvor bo'lsa, bag'rikenglik barqaror o'rin egallasa o'sha jamiyatda yurtsevarlik yuqori cho'qqiga chiqadi. ”**



quvvatini harakatga keltiruvchi kuchdir.

Ikkinchidan, mamlakat iqtisodiy o'sishi zarur. Iqtisodi mustahkam bo'lgan jamiyatda o'qib-o'rganishga, yangiliklarga intilish uchun yetarlicha kuch paydo bo'ladi. Har qanday to'siqlarni yengib o'tish oson kechadi.

Uchinchidan, xalq milliy o'zligini yanada teranoq anglashi zarur. Bunga hozir mamlakat rivojlanishining asosiy poydevori sifatida qaralishi bejiz emas. Milliy o'zlikni anglagan jamiyat ma'rifati nuri ila yashaydi, qalbid vatanparvarlik hissi kuchli bo'ladi. Buning uchun ajdodlarimiz orzusi kabi jamiyatda fozil odamlarning shahrini

yaratish ishtiyoqi ustuvor bo'lishi kerak. Butun jamiyatda bir vaqtning o'zida bunday ishtiyoqni uyg'otish, milliy o'zlikni teran anglash oson emas! Ammo yangi O'zbekiston misolida buni havas qilarlik darajada uddalay olishimizga amin bo'lib boryapimiz.

Zero, mamlakatimizdagi islohotlarni birma-bir tahlil etsangiz, mazkur faktorlarning barchasi ro'yobga chiqayotganini ko'rasiz. Buni bevosita Islom sivilizatsiyasi markazi misolida ham ko'rish mumkin.

Endigi fikrimizni yuqoridagi faktorlar sharhi bilan davom ettirajak.

kambag'allikning tan olinishidan torib, tadbirkorlik, ish o'rnlari yaratish yo'lidagi imkoniyat va imtiyozlarga bo'lgan o'zgarishlarni tom-tom kitob qilib izlash mumkin. Qolaversa, O'zbekiston dunyoga ochilgach xorijiy samoyadorlarning katta oqimi iqtisodiy hamkorimizga aylandi. Hatto butun bir mintaqa miqyosida hamkorliklar yo'lga qo'yilmoqda.

Sivilizatsiya markazida o'z aksini

## E'tirof

# DOVRUG'I UNYODA DOSTON

Ayni paytda xalqlarimizning o'ziga xos tarixiy-madaniy merosiga asoslangan mintaqaviy o'ziga xoslikni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Kecha biz Islom sivilizatsiyasi markazini ziyorat qildik. Bu ulkan va noyob inshoot. Darhaqiqat, bu ilmiy, turistik va etnomadaniy loyihadir.

O'zbekiston Prezidentining fikriga qo'shilaman: Islom sivilizatsiyasi markazi bu yerda — Toshkentda, juda muhim sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun umumiy maydonchaga aylanishi mumkin.

**Qosim-Jomart TOQAYEV,**  
Qozog'iston Respublikasi Prezidenti

Men bunga o'xshash markazni avval hech qayerda ko'rmaganman. Islom sivilizatsiyasi markazi nihoyatda zamonaviy va go'zal uslubda qurilgan va yaratilgan. Bugun men juda ko'p narsani o'rgandim va albatta bu yerga yana qaytaman. Serbiyalik barcha vatandoshlarimga bunday degan bo'lardim: "Azizlarim, men juda katta xato qilganman, chunki bu mamlakarga ilgari hech qachon kelmaganman. Iltimos, imkon qadar tezroq O'zbekistonni ko'rish uchun kelinglar".

**Aleksandr VUCHICH,**  
Serbiya Prezidenti

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakat rahbari O'zbekistonning boy madaniy qadriyatlariga sodiqligining yana bir yorqin isbotidir.

Ayrim mamlakatlarda dinimizga nisbatan xurujlar kuchayib, islomofobiya tizimli tus olayotgan bir paytda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi butun dunyoga islom — bunyodkorlik, bag'rikenglik, do'stlik va birodarlik dini ekanini namoyon etadi. Islom olamining buyuk namoyandalari jahon ilmi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Islom sivilizatsiyasi markazi buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ishonchim komilki, Toshkentdagi salobati va ekspozitsiyasi jihatidan noyob bo'lgan Islom sivilizatsiyasi markazi butun islom olamining faxr-iftixoriga aylanadi.

**Ilhom ALIYEV,**  
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, markazning keng qamrovli ekspozitsiyalari bilan tanishdik. Mazkur maskan me'moriy yechimlari, zamonaviy texnologiyalar va boy madaniy-ta'limiy mazmuni bilan ajralib turadi. U nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqada uning muhim ilmiy-ma'rifiy markaz ekanini yaqqol namoyon qiladi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda ilgari surgan tashabbusning samarasi bo'lib, bugun islom dunyosi madaniy merosini asrash va targ'ib qilish yo'lidagi muhim ilmiy markazga aylangan.

**Atageldi SHAMIRADOV,**  
Turkmaniston madaniyat vaziri

Loyihaning ko'lami va ilm-fan asosida tashkil etilgan munda ulkan taassurot qoldirdi. Markazdagi har bir ekspozitsiya Uyg'onish davrlarini chuqur yoritib, O'zbekistonning tarixiy taraqqiyot yo'lini jonli aks ettirmoqda. Tarixiy eksponatlarining boyligi va noyob artefaktlarning bir maskanda to'plangan — katta mehnat va yuksak mas'uliyat mahsulati ekanini ko'rsatadi.

**Emerik VINENJE,**  
Fransiya Qurolli kuchlari vazirligi generali

O'zbekistonda bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat mintaqamiz, balki butun islom olami, qolaversa, butun dunyo uchun ham juda muhim. Markazning me'morchiligi, tashqi ko'rinishi va mazmuni barcha ziyoratchini o'ziga rom etdi.

O'yalmizki, jahon uchun alohida ahamiyat kasb etadigan ushbu markaz kelgusida madaniyat, ilm-fan, ta'lim maskani sifatida faoliyat yuritadi. U juda boy mazmunga ega, ko'plab eksponatlarga boy. Bu yerda to'plangan

O'zbekiston tarixi haqiqatan beqiyos. U besh ming yillik taraqqiyotni qamrab olgan ulkan sivilizatsiyadir. Bir millatni anglash uchun uning tarixini bilish kerak. Bu yerda esa tarix juda boy. Insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ko'plab ilmiy va madaniy yutuqlar aynan shu zamindan kelib chiqqan. O'zbekistonning eng katta boyligi tarixiy merosi, ilmiy yutuqlari va madaniy sivilizatsiyasidir. Masalan, algebra yoki tibbiyot sohahidagi ilk mukammal ilmiy asoslar shu yurtdan kelib chiqqanini ko'pchilik bilmaydi. Men bu tashrifdan juda ruhlandim.

**Santayo PENYA,**  
Paragvay Respublikasi Prezidenti

Islom — tinchlik, odamiylik, bag'rikenglik dini. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazining asl maqsadi ham tabarruk dinimizning haqiqiy insonparvar, ilm-ma'rifati dini ekanini namoyon etish. Bu borada men O'zbekiston hukumati tabriklayman. Chunki aynan ushbu markaz islomning ulug'vor ma'rifatchilik g'oyalari butun dunyoga targ'ib etib, hozirgi yot g'oyalarga va tahdidlarga munosib javob beradi.

**Sulton RAYEV,**  
TURKSOY Bosh kotibi

Bu kabi markazni dunyoning hech bir joyida ko'rmaganman. Bu yerga kirgan odam tarixning turli davrlarida sayohat qilgandek bo'ladi. 3D sahnalar, multimedial taqdimotlar va ilmiy izohlar o'tmishni aynan ko'z oldingizda jonlantiradi. O'zbekiston ming yillik ilm-fan merosini bir joyda jamlab, zamonaviy talqinda namoyish eta olgani juda katta yutuq.

**Rana Ihsan AFZAL,**  
Pokiston Bosh vaziri devonida savdo bo'yicha koordinator

hamda islom sivilizatsiyasining barcha mintaqasidan, jumladan, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondan keltirilgan tarixiy faktlar, artefaktlar, qo'lyozmalar — bularning barchasi kelgusida markazning ilm-fan va ta'lim sohahida faoliyat yuritishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

**Adil KARIMLI,**  
Ozarbayjon madaniyat vaziri



# TAMADDUN

tafakkuri


## Fotosayohat

“O‘zbekiston zaminida islomgacha bo‘lgan davr” ekspozitsiyasi zalida 250 metr uzunlikdagi **“VAQT DEVORI”** tashkil qilingan. Bu devorda xalqimizning kamida 3000 yillik davlatchiligi tarixi barelyef, miniatyuralar va mahobatli rangtasvir asarlari ko‘rinishida aks ettirilgan.




# YANGI O‘ZBEKISTON

**“BIRINCHI RENESSANS”** ekspozitsiyasi VIII-XIII asrlarni qamrab olib, ekspozitsiyada islomning Movarounnahr tarqalishi, mahalliy aholi madaniyatiga ta‘sir, Movarounnahrning islom ilmlari rivojiga hissa qo‘shgan olimlari merosi ko‘rsatiladi.



# MILLIY ZEHNİYAT MARVARIDI

Islom sivilizatsiyasi markazining me‘moriy ulug‘vorligi shundaki, muhtasham inshootning eng kichik elementiga ham o‘ziga xos ramziy ma‘no yuklatilgan. Majmuadagi g‘oyaning nafisligi bois, istalgan tashrif buyuruvchi bir vaqtning o‘zida ham o‘tmish salobatini yaqindan his qiladi, ham kelajakning yuksak ufoqlari sari odimlashda ongida milliy zehniyat oqimlarini ochadi.



Ulug‘bek darvozasidan kirishda, markaz foyesida juda katta **“SHON-SHARAF ZALI”** sizni kutib oladi. Zalning perimetri bo‘ylab yarim oval 14 ta ravog‘ joylashgan. Ushbu ravog‘larda buyuk allomalarimiz va tarixii shaxslar faoliyati rangtasvir uslubida, xitolik mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlangan.

**“IKKINCHI RENESSANS”** ekspozitsiyasida Amir Temur hukmronligi va o‘zbek xonliklari davridagi madaniy-ma‘rifiy hayot aks ettirilgan. Unda Amir Temur davriga oid kashfiyotlar va ilmiy yutuqlar xaritasi ilk bor namoyish qilingan.



**“YANGI O‘ZBEKISTON — YANGI RENESSANS”** ekspozitsiyasida mamlakatimizda so‘nggi to‘qqiz yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlar, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar yoritib berilgan.

Markazning eng asosiy qismida **QUR‘ONI KARIM ZALI** bunyod etilgan. Bu yerda musulmon dunyosining ma‘naviy durdonasi — VII asrda qo‘lda ko‘chirilgan Usmon Mus‘hafi va yana turli davrlarda ko‘chirilgan 114 ta nodir Qur‘on qo‘lyozmalari joylashtirilgan.


# UCH RENESSANSNING TO‘RT DARVOZASI



**ULUG‘BEK PORTALI** — markazning yuragi. Balandligi 37,7 metr, eni esa 33,7 metr. Peshtoqi uch qismdan iborat bo‘lib, uch Renessans davriga ishoradir. Portal naqshlaridagi simmetriya esa til va dil uyg‘unligi, xalq birdamligi ramzi. Markaz binosining asosiy darvozasi sifatida Ulug‘bek portali muzeyga kirish eshigi hisoblanadi. Ushbu portal Samarqandning Registon maydonidagi Ulug‘bek madrasasi portali bezaklariga uyg‘un holda qurilgan. Portal peshtoqida Qur‘oni karimning ilmga targ‘ib qiluvchi oyatlari suls va kufiy xatlarida bitilgan.



**QO‘QON PORTALI** — ilm va ma‘rifat eshigi. Janubiy qismda joylashgan bu portal orqali markazning kutubxonasiga kiriladi. XIX asr Qo‘qon naqqoshlik maktabi uslubida bezatilgan. Darvoza uch qismdan iborat bo‘lib, u ham uch Uyg‘onish davriga ishora qiladi. Portaldagi Allohning 99 sifati bitilgan. Qur‘on oyatlari epigrafik naqshlar bilan uyg‘un holda darj etilgan.



**BUXORO PORTALI** — ma‘naviyat darvozasi. Uning me‘moriy yechimida Buxoro shahrida shakllangan milliy uslub mujassam. XII asrdagi Mag‘oki Attor masjidi va Bayonqulixon maqbarasi bezaklari portal dizaynida ijodiy qo‘llangan. Fasadi tinchlik va bag‘rikenglik ramzi bo‘lmish firuzarang koshinlar bilan bezatilgan.



**XORAZM PORTALI** — koinot uyg‘unligi. U bezaklari bilan qadimiy Xorazm me‘moriy an‘analarini namoyon qiladi. Geometrik naqshlar koinot qonuniyatlarini va bunyodkorlik ramzi, islamiy naqshlar esa yangilanish va bardavomlik ma‘nosini bildiradi. Markazdagi sakkiz qirrali yulduz esa alohida e‘tiborga molik. U islom san‘atida koinot uyg‘unligi va cheksizlik timsolidir.

# HAYOTIMIZ MAZMUNI VATANGA XIZMAT QILISHDIR

Ulug' ajdodlarimizning hech biri raiyat ahvolidan yiroq bo'lib, mahalladan, el-ulusdan bexabar yashagan. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy "Hayrat-ul abror" asarida mahalla haqida so'z yuritib, uni "shahar ichra shaharcha" deb ataydi:

"Shaharlar otini mahallot etib, Bo'ldi chu yuz shahr Hiri ot etib".

Shuningdek, "Vaqfiya" asarida mutafakkir o'zi yashagan mahallada ko'plab xayriya ishlarini amalga oshirgani bayon etiladi. Navoiy o'z hisobidan mahallasida masjid, madrasa va maktab qurdirgan. Ariqlar qazdirib, mahallani bog'u bo'stonga aylantirgan. Uning homiyligida mahalla yo'llari ta'mirlanib, ariqlar ustiga mustahkam ko'priklar bunyod etilgan.

Sohibqiron Amir Temur "Tuzuklar"da jamoa bo'lib yashash, hududlarda odamlarning bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlikda hayot kechirishini yagona tizimga solgani, qat'iy qonun-qoidalari va bu boradagi tajribalarining ijobiy jihatlari bayon etadi:

"Amr qildimki, urush kunlarida va saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshiniki o'nboshiga, o'nboshiniki qo'l ostidagilarga joriy etiladi. Agar bu tuzukka qarshilik qilsalar, jazoga tortilsinlar".

Intizom, rahbar topshirig'iga rioya qilish va vazifalarni o'z vaqtida bajarish sharqona boshqaruv asosi hisoblangan. Bu, o'z navbatida, fuqarolarning jamiyat hayotida o'rni borligini, unda kechayotgan hodisalarga daxldorligini bildirib, tashqaridan keladigan xatarlarga qarshi bir jonu bir tan bo'lib, qat'iy tartibda birlashishiga xizmat qilgan. Amir Temur fuqarolarni umummanfaat atrofida birlashtirishning eng adolati yo'lini topgani uchun ham uzoq hukmronlik qilgan. Shak-shubhasiz, uning ming-minglab qo'shinlari ortida minglab oilalar, mahallalar hamda o'z rahbaridan mehru shafqat, adolatu himoyat ko'rgan xalq turgan. Aynan shu birlashuv Amir Temur g'alabalariga zamin yaratgan.

Abu Nasr Forobiy bunday yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tug'ilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi".

Demak, inson davraga intiladi, atrof-muhit bilan hamnafas yashaydi. Uning moddiy jihatdan kamchiligi bo'lmasligi mumkin, ammo moddiyat uning tom ma'nodagi baxtini ta'minlay olmaydi. U ruhiy madadni, quvvatni odamlardan oladi. Inson jamiyatdan o'ziga ruhiy sheriklar, ma'naviy fikrdoshlar topadi.

Tarix sahifalarini varaqlaganimizda, insoniyat bundan uch ming yillar oldin ham yagona e'tiqod ostida birlashib, jamoa bo'lib yashaganini ko'ramiz. Mahalla tushunchasining o'sha zamonlardayoq ildiz otganiga amin bo'lamiz. Og'ir kunlarda yelkadosh bo'lib sinovlardan o'tish, baxtli kunlarni birgalikda yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bamaslahat hal etish, soliq tayinlash va yig'ish, dushman bostirib kelganda safarbarlik e'lon qilish, g'animlar bilan sulh tuzish, to'qnashuvlarni to'xtatish va urushlarning oldini olish uchun ham bir yoqadan bosh chiqarib, mahalla bo'lib yashash tajribasi mavjud edi. Miloddan avval tashkil topgan Qang', Davon davlatlarida bu tuzilma oqsog'olning kengashi sifatida faoliyat yuritgani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Shonli tariximiz ko'rsatadiki, bir maqsad atrofida birlashish bizga ota meros, bobo meros bo'lib kelgan. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-



Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

iqtsodiy rivojlanishi mahalla tizimida inson qadriini oliy o'ringa ko'tardi. Yurtimizda fuqarolar manfaatlari har narsadan ustun. Milliy qadriyatlar asosiga qurilgan va yuksalayotgan jamiyatimizda axloqiy fazilalarimizning barchasi kelajak avlodga singdirilishi kerak. Shuning uchun ham bizda "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan gap bor.

Bizning har birimiz yetti mahalla yoshlarining tarbiyasiga ma'naviy javobgarmiz, mas'ulimiz. O'z vaqtida oilamizda kamol topayotgan farzandlar mahalla, qo'ni-qo'shnilar bilan munosabatta shakllanadi. Aqlini taniy boshlagach, mahalladagi tengdoshlari davrasidan ruhiy andoza oladi. Uning axloqiy tarbiyasiga mahalla muhiti kuchli ta'sir o'tkazadi. Har bir mahallaning faxri bo'lgan izzatli insonlari bor. Odamlari mehnatkash, ma'rifatlil, halol, mehrlil va sabrlil mahallalardan fayz arimaydi. Aynan o'sha mahallalar odamlari kambag'al bo'lmaydi, o'ziga to'q yashaydi. Baraka, avvalo qat'iy tartib, mehru oqibbat, bir-birini ayash, tushunish, qo'llab-quvvatlash va bir musht bo'lib birlashishdadir.

Azaldan hunarmand odamlar yashaydigan go'shalar obod bo'lgan. Ya'ni odamlarni mehnat, hunar va ma'rifat birlashtirgan. Mahallalarning nomlari ham aholi shug'ullangan hunarmandlik turi bilan atalgan. Masalan: Temirchilar, Kosiblar, Naqqoshlar, Kashtachilar, To'qimachilar, Arqonchilar, Novvoylar, Patrichilar, Qandolchilar, Egarchilar, Zargarlar, Zardo'zlar, Telpakfurushlar, Chilangarlar kabi. Qishloq joylardagi to'kinlikni ham birgalikda qilgan mehnat, hunarni qizg'anaslik kabi olibnanob fazilatlarida ko'rish mumkin.

Bir-birini tanigan, og'ir paytda qo'l cho'zgan, dardingni, oilaviy ahvolingni ko'zingdan qarab bilgan mahalladoshlar haqida "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shning yaxshi", "Yon qo'shning — jon qo'shning", "Gilam sotsang qo'shninga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasan",

"Qiyomat kuni qo'shningdan so'raladi" degan purma'no gaplar bor. Bu gaplar zamirida olam-olam ma'no yotibdi. Mahallani mensimaydigan, topgan bir dasta puliga mahliyo bo'lib, o'zgalarni maxsaralaydigan kaslar bora-bora mahalladan ayrilib qoladi. Mahalladan ayrilib qolish esa og'ir isnoddek gap.

Atrofdagilar ko'rganida teskari qarab o'tishidan ham xunuk manzara bormikan? Mahallada biror tadbir yoki maslahat yig'ini bo'lsayu, ko'pchilik "Ey, falonchini aytmanlar, hammaning dilini vayron qiladi, o'sha bilmay qo'ya qolsin", deyishlaridan asrasin. Shuning uchun ham mahallaning obro'li insonlari mahalla bilan hisoblashmay qo'nganlar bilan alohida gaplashadi, ko'ngliga yo'l topib, mahallaga qo'shilishiga erishadi.

Bu borada ham masalaga ijobiy yondashish kerak. Yaxshi odam bo'lishi mumkin, ammo bandligi tufayli mahalla idorasiga kirib-chiqishga vaqti yo'qdir. Ba'zan "Sulaymon tog'ning oldiga kelmagani ekan, tog'ning o'zi Sulaymonning yoniga boribdi", deganlaridek, o'sha odamning oldiga "mahalla yetilgisi" borishi, mahalladagi ishsizlarga ish topishida, muhtojlarga muruvvat ko'rsatishda uning salohiyatidan foydalanishi yaxshi natijalar berishi tajribada o'z isbotini topgan.

"Mahalla menga nima berdi?" deyidigan emas, "Men mahallaga nima berdim?" deyidiganlar ko'paydi. Ezguliklardan ruhlangan odamlar o'z-o'zidan mahallada birlashdi. Birgalikda erishayotgan yutuqlarimiz ham bizni yanada jipslashtirdi.

2026-yilning yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish



yili" deb nomlanishi ham birgalikda erishmog'imiz shart bo'lgan maqsadlarga ilhomlantirdi. Bugungi kunda mahallalarimizga 5-6 yil kelmagan odam ularni tan olmay qolmoqda. Muhtasham binolar, ranyon yo'llar, ko'rkam gazlarlar qad rostladi. Zamonaviy maktablar ochilishi, jamiyatda o'qituvchilarning maqomi ko'tarilishi, markazdan to eng chekka hududlardagi mahallalarimizgacha tibbiy xizmat sifati oshishi xalqimizning ertangi kunga ishonchini mustahkamlayotir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tashkil etilgan "Ma'rifat karvoni" loyihasi kirib bormagan mahalla qolmadi. Loyiha doirasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida "Sivilizatsiyalar — shaxslar — kashfiyotlar",



samarasini berdi. Loyiha natijasida odamlarda ishlashga ishtiyoq oshganiga guvoh bo'ldik.

"Ma'naviy ko'makchi"larning faoliyati, ayniqsa, xotin-qizlar orasida yaxshi samara bermoqda. Xalqimizda "El onasiga ergashadi", degan naql bor. Bunda ham ko'p hikmat yashiringan. Bu hikmatli so'zni yashashga, intilishga rag'bat oshirish uchun qo'llash mumkin ekan.

O'zim "ma'naviy ko'makchi" bo'lib ish yuritgan 5 ta mahalla raislaridan olgan xulosalarim ko'rsatdiki, mahallalarda ma'naviy muhit keskin o'zgardi. Erta-kech ko'chaga chiqib, nimalardandir nolib, g'iybat qilib o'tiradigan ayollar asta-sekin kamaymoqda. Eri daromad topib keladigan yoki turmush o'rtog'i xorijdan pul yuboradigan ayrim ayollarning kafalaridagi behuda ko'ngilochar o'tirishlari qisqarib, ular "mahalla yetilgisi" taklif etgan ishlarga joylashib, daromad topa boshladi.

To'g'risini aytish kerak, dastlab ish taklif etilgan korxonalarda maosh 2-3 million so'mdan boshlanadi. Ish joyining mahallaga yaqinligi, yo'lga uzoq vaqt va yo'lkira sarflamasligi kabi qulayliklarni "ma'naviy ko'makchi" tushuntirib boradi. Eng muhimi, bir necha oydan keyin maoshning oshishi, mahalla va qo'ni-qo'shnilar oldida "ishsiz" degan yorliqning olib tashlanishi ularning hayotiga ilqilik, yorug' nor olib kiradi. Mahalla yordami bilan kasb-hunar kurslarida bepul o'qib, tikish mashinalarida o'z mehnatiga yarasha mablag' topa boshlagan ayollar bilan suhbatlar ularni mahalla bilan bog'lash naqadar katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

To'g'ri, bu isha biron, ommaviy kirishib ketilgani yo'q. Ammo 1 ta "ma'naviy ko'makchi" dastlab 2-3 kishiga ruhan ko'mak bergan bo'lsa, 1 oy ichida 10 ta, 2 oy ichida 20 ta, 4-5 oy ichida esa 50 dan ortiq odamning ish topib, katta xohish bilan mehnat faoliyatini boshlashiga sababchi bo'lishi mumkin.

Aholining ijtimoiy faolligi oshirilishi umumiy kayfiyatga ta'sir qiladi. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va milliy qadriyatlarini targ'ib qilish ishlari "Dolzab 90 kun" loyihasi doirasida yoz faslida, ming-minglab o'quvchilar ta'tilga chiqqach, ishtirokchilar qamrovini kengaytiradi. "Kitob karvoni" orqali mahalla kutubxonalariga tuhfa sifatida durdonalar asarlar kirib borgan, kitobsevarlarning adib va shoirlar bilan jonli muloqotlar o'tkazishi unutilmas xotiraga aylandi.

Yaqinda 94 yoshni qarshi olgan ustoz jumalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Yayra Sa'dullayeva bilan ma'naviy yuksalishimiz haqida uzoq suhbatlashdik. Uning to'g'ri qilinib aytgan gaplari hech yodimdan chiqmasa kerak. Nuroniy adibimiz bunday dedi:

"Prezidentimizning o'zi yurtimizdagi oddiy xalq bilan tez-tez uchrashishi, mahallalarga borib, nuroniyar bilan quchoq ochib ko'rishishi, jaji bolalarni bag'riga bosib gaplashishi, olis qishloqlarga tashrif buyurganida xonadonlarga kirib, xalqimizdan hol-ahvol so'rashi barchamizning kayfiyatimizni ko'taradi. Shu ulug' yoshga yetganimcha men ham hayotning achchiq-chuchugini ko'p boshdan o'tkazdim.

Jurnalist nigohimda olis qishloqlardagi tomidan chakka o'tgan maktablar, o'nqir-cho'nqir yo'llar, pastak, paxsa devorli qishloq hovlilari, uylardan bir etak go'daklari bilan tongdanoq paxta dalasiga yo'l olgan qishloq ayollari, yuqumli kasalliklarga to'lib ketgan shifoxonalar ko'z o'ngimdan ketmaydi. Katta-katta mahallalar o'rtasida bitta yo'likka ikki marta bo'lardi. Bozorlardagi antisaniitariya holatini eslasam, hamon dilim qayg'uga to'ladi.

Mana bugun to'ylar "Maromiylik" loyihasi asosida o'tmoqda. Odamlarning kayfiyati milliy qo'shiqlarimiz, baxshilarimiz aytgan dostonlar o'lanlarga hamohang bo'lmoqda. Aziz yurtdoshlarimizning yurish-turishlari, kiyinishlariga qarab zavqlanaman va madaniyat ham jamiyatning ma'naviy yuksalishi ekaniga amin bo'laman.

Bugun mahallalarimizni kezib, ko'ngling yayraydi. To'g'ri, keyingi yillarda oyog'im oqsab, pand bermoqda. Ammo farzandlarim avtomashinada haftada ikki marta shahrimizni va yurtimizdagi ayrim inshootlarni tomosha qilishga olib boradi. Yurt go'zalliklarini ko'rib ko'nglim ochiladi, dilim yayraydi. Shuning uchun farzandlarim meni tez-tez sayrga olib chiqishni odat qilgan. Yurtimizning jannati jamiyotini ko'rishga yetkazganiga shukr".

Darhaqiqat, mahalla ahlisi orasida ko'pchilik bo'lib ziyoratlariga borish, teatr va tomoshalarga oilaviy tashrif buyurish arfga aylandi. "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari bo'lgan mashhur olimlar, san'atkorlar, adib va shoirlar Qoraqalpog'istonning Mo'ynog'ida ovullardan to Qashqadaryoning eng chekka qishlog'i G'ulorchiga, Surxondaryoning Boysunidagi Yulgori Machayigacha, Farg'onaning So'xiyu Navoiy viloyatining Tangi Jumanigacha, Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Chorchorin, Jizzaxning qayta chiroy o'chgan Manas mahallasigacha yangi O'zbekiston ruhini, abadiy barhayot qadriyatlarini, ma'naviy xazinasi tashib yuruvchi karvon bo'lib kirib bordi.

Prezidentimiz boshlab bergan bu muhtasham karvonning nurlil manzillari mahalladoshlarimiz davrasida, mahallalarimizdadir. Zero, umrimizning mazmuni shu vatanga xizmat qilishdir. Mahallalarni rivojlantirish va jamiyatimizni yuksaltirishda fidoyilik ko'rsatish har birimizning vijdon ishimiz.

## SAXOVAT VA MURUVVAT

### xonadonlarga ijtimoiy ko'mak bo'lib kirdi

Bu yilgi Ramazon oyi yurtimizda o'zgacha shukuh, ko'tarinki ruhda o'tdi. Azaliy qadriyatlarimizga yo'g'rilgan xayr-saxovat, mehr-oqibat, ezgulik an'analari yurtimizdagi bunyodkorlik ishlohtlariga uyg'unlashdi. Muborak o'ying so'nggi kunlarida mamlakatimiz hayotidagi tarixiy voqea — O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi hali uzoq yillar katta hayajon bilan tilga olinadi. Salkam to'qqiz yil davomida bunyod etilgan ulug'vor va noyob majmuaning muborak oyda rasman ishga tushishi, shu kuni iftorlik marosimi tashkil etilgani ajdodlarimizga chuqur hurmat, ular nomini yod etish belgisi barobarida, dinimizning insonparvarlik mohiyatini yana bir bor aks ettirdi.

Ezgulik va mehr-oqibat ramziga aylangan Ramazonning tub mohiyatida ham inson qadri, birdamlik, o'zaro hurmat, o'zgalarga yaxshilik mujassam. Bu yil yurtimizda ana shunday ishlar yanada keng quchoq yoygani, muborak oy chin ma'noda savobli ishlarga boy o'tganiga guvoh bo'ldik. Yordamga muhtoj oilalarga alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatildi. Davlat va nodavlat tashkilotlar, mutasaddi tuzilmalar, saxovatli tadbirkorlar tomonidan kexsa va nogironligi bor shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, ko'makka muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam berildi. Ushbu xayrli ishlar Ramazon oyi avvalidayoq boshlandi. Prezidentimizning shu yil 17-fevraldagi

tegishli qarori bilan ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini belgilangan ko'plab oilalarga quvonch olib kirdi. Unda ayrim toifadagi oilalarga 1 million so'mdan, kambag'al oilalarga 500 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam berilishi, ijtimoiy reyestrda oilalarning bemor 6000 a'zosi bo'lgan davolanish xarajati qoplanishi ko'zda tutilgan edi. Buning uchun "Vaqi" xayriya jamoat fondiga 800 milliard so'm ajratildi.

Mazkur mablag' muborak oy davomida barcha hududda shakllantirilgan ro'yxat asosida o'z egalari taqsim etildi. Shu shunchaki moddiy ko'mak emas, balki mamlakatimizda har bir kishi



e'tiborda ekanini, inson qadri ulug'lanishi, ezgulik qadriyatlarining yorqin namunasiga aylandi. Buni yurdoshlarimiz ham his etdi, qvondiki. Keksalar qo'lini duoga ochib, bugungi kunlar uchun shukrona keltirdi.

Toshkent viloyatida yashovchi yolg'iz keksalar, nogironligi bor kishilar, kam

ta'minlangan oilalar ham e'tibordan chetda qolmadi. Ramazon oyi munosabati bilan viloyatdagi 48 mingdan ortiq fuqaroga bir martalik moddiy yordam puli ajratildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi mutasaddilari, mahalla vakillari ushbu fuqarolardan har birining xonadoniga

borib, ulug' ayom kunlarida holidan xabar oldi, yordam puli, davolanish uchun vaucherlarni topshirdi.

Ramazon oyida ajratilgan 1 million so'm moddiy yordam oilamiz uchun ayni muddado bo'ldi, — deydi Bo'ka tumani Yangiqo'rg'on mahallasida yashovchi Odina Mutaliyeva. — Turmush o'rtog'im va farzandimda nogironligi bo'lgani bois, doim qo'shimcha xarajatimiz bor. Po'zgor' tebratishdan tashqari, dori-darmonga pul kerak. Davlatimiz bizni hech ham yolg'izlatib qo'ymaydi. Oilamiz ijtimoiy reyestrda kiritilgani ham ancha yengillik bo'ldi. Mahalla faollari doim ahvolumizdan xabardor bo'lib turadi. G'amxo'rlikdan quvonamiz.

O'ra Chirchiq tumanidagi "Kim Pen Xva" MFYda ham ehtiyojmand 38 oilaga 1 million so'm hamda 500 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam berildi. Mahallada yashovchi nogironligi bo'lgan fuqarolarga esa davolanish uchun vaucherlar topshirildi. Mazkur vaucherlarda har bir bemorning ahvoli, tibbiy holatidan kelib chiqib ajratilgan summa ko'rsatilgan. Mas'ul muloqot davomida bemorlar va yaqinlariga maxsus vaucher asosida ajratilgan mablag' evaziga davolanish tartibi hamda qo'shimcha ko'mak turlari haqida ham tushuntirish berdi.

Ohangoran shahri Bo'ston mahallasida istiqomat qiladigan Xurshid Bo'tayeva "Vaqi" xayriya jamoat fondi tomonidan 40 million so'mlik vaucher topshirildi. Gap shundaki, ushbu fuqaro 2-guruh nogironligi sabab mustaqil harakatlanmaydi. Ijtimoiy reyestrda kiritilgan bo'lib, hududga biriktirilgan ijtimoiy xodim uning holidan doimiy xabar olib turadi, zarur amaliy yordam ko'rsatib keladi. Ma'lum qilinishicha, sal avval fuqaroga nogironlik aravachasi ajratilib, farzandlariga nafaqa tayinlangan. Hudud mas'ullari ko'magida xonadoni ta'mirlanib,

yashash sharoiti yaxshilangan. Salomatligini tiklash maqsadida bir necha bor bepul jarrohlik amaliyoti ham o'tkazilgan.

Navbatdagi operatsiya uchun qariyb 38 million so'm zarur bo'ldi, — deydi ijtimoiy xodim Hulkan Ashirova. — Oilaning sharoiti inobatga olinib, mablag' to'liq xayriya tarzida qoplab berilmog'chi. Buning uchun fuqaroga 40 million so'mlik vaucher topshirildi. Bu mablag' uning davolanish jarayonini davom ettirishga xizmat qiladi. Qqlaversa, bunday g'amxo'rlik bemoerga umid bag'ishlab, ertangi kunga ishonchini mustahkamlayapti.

Ramazon oyida saxovat va ijtimoiy himoya tizimi uyg'unlashtirilgani boisi ham shunda. Ko'makka muhtoj fuqarolar ko'rsatilgan xayrli ishlar, ezgu tashabbuslar orqali ijtimoiy ko'makni, e'tibor va g'amxo'rlikni his etmoqda.

Bunday ezgu amallar mamlakatimizda doimiy harakatga aylangan. Har bir mahallada ijtimoiy xodim ishlayapti, kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan, himoyaga muhtoj odamlar doimiy e'tibordada. Ma'e'tibor shunchaki hol-ahvol so'rash bilan cheklanmaydi. Oiladagi eng kichik muammogacha o'rganilib, yechimi berilayapti. Ular bugun yolg'iz emasligi, davlat tirgak bo'layotganini his etib yashayotganining o'zi eng katta ezgulik va saxovatdir.

Yurdoshlarimiz ham bu xayrli tashabbuslarga xayrixoh. Shu kunlarda yurtimiz bo'yab keng nishonlanayotgan Ramazon hayiti va Navro'zi ayym kunlarida xalqimiz ezgu amallarni davom ettirib, yolg'iz keksalar, ko'makka muhtoj oilalar holidan xabar olmoqda. Saxovatli insonlar yordam qo'lini cho'zaypti.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

# UMRBOQIYLIKKA YUZ TUTGAN IJOD

Bir kuni maktabimizda shoirlar bilan ijodiy uchrashuvga tayyorgarlik boshlanib ketdi. Biz, yuqori sinf o'quvchilari katta sport zaliga joy hozirlab, bezatdik. Shoirlar keladigan kuni maktab hovlisida kitob savdosi yarmarkasi ham tashkil etildi. Yuk mashinasida olib kelingan peshtaxta hamda bog'lambog'lambog'lar kitoblarni tushirish va chiroyli qilib ko'rgazmaga tayyorlashga ko'maklashdim.

yoxud XX asr o'zbek she'riyatining  
eng zabardast vakili



## Navro'z

Avval yuragingga mo'ralaydi u,  
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.  
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,  
Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.  
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Ona bag'ri kabi iliqdir olam,  
Harir hovur ichra yayar dala-tuz.  
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,  
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.  
Yana dildorlikning fursati yetdi,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda navro'z.

Abdulla ORIPOV

O'shanda sakkizinchi yoki to'qqizinchi sinfda o'qirdik. Badiiy adabiyot, ijodga qiziqishim shakllanib borayotgan, bosh ko'tarmay kitob mutolaa qiladigan paytlarim edi. Asosan hikoya, qissa, romanlarni ko'proq o'qirdim. Qarasam, kitoblar orasida menga tanish nomdagilari ancha-muncha, o'qib ulgurmaganim undan-da ko'p edi. Kitobga befarq emasligimni ko'rib, sotuvchi ayol yonimga keldi.

— Puling yetsa, senga bitta kitob beraman. Bundan o'zi bir dona olib kelganmiz, — dedi u qutilar ichidan to'q yashil muqovali qalin kitobni olib. — Xaridori ko'p. 2,5 so'm evaziga u seniki bo'lishi mumkin. Olasanmi? Yonimda buncha pul yo'q, faqat tushlik uchun berilgan tiyinlar bor edi. Kitobni qo'limga oldim. Abdulla Oripovning "Yillar armoni" to'plami ekan. Ko'zim bilan ko'rmagan bo'lsam-da, kitob 1983-yili chop etilib, tezda sotilib ketgani, yaqinda uning ikkinchi nashri ham bosmaxonadan chiqqanidan xabarim bor edi. Xalqimizning suyuqlik shoiri ijod namunalari gazeta, jurnal va darsliklarda o'qiganman, lekin bunday durdona she'rlar jamlangan salmoqli kitobini birinchi bor ushlab turishim edi.

— Olan. Yashirib qo'ying, hozir kelaman.

Uyga borib, buvim yo otamdan pul olib kelay, desam, uchrashuvni o'tkazib yuboraman. Uzoq o'ylamay, meni doim qo'llab-quvvatlab keladigan adabiyot muallimim — To'xtamurod akaning yoniga bordim. Vaziyatni tushuntirdim.

— Buncha yaxshi. Kel, bunday qilamiz: kitobni men sotib olaman, so'ng senga o'qishga berib turaman.

— Yo'q, pul berib tursangiz, kitobni o'zim sotib olaman, pulni ertaga qaytaraman, keyin kerak payti to'plamni sizga ham berib turaman.

To'xtamurod aka qaysarligimdan mamnun bo'ldi shekilli, tabassum bilan hamyonidan pul chiqardi. Bu orada g'alag'ovur boshlanib ketdi. Gulduros qarshak va olqishlar ostida biz darsliklarimiz va teleekran orqali ko'p ko'rgan, radioefirlarda ovozlarni tinglagan Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim kabi bolalar adabiyotining ustunlari zalga qator bo'lib kirib keldi. Uchrashuv boshlanib, davra avval jonlanib, keyin qizib ketdi. She'ronlik, kuy-qo'shiq va sahnaleshtirilgan tomoshalar davom etyapti, xayolim peshtaxta tagiga yashirilgan "Yillar armoni"da: "Ishqilib sotuvchi ayol kitobni boshqaga (To'xtamurod akaga) berib yubormasin-da".



Yo'q, u so'zida turdi. Uchrashuv tugab, uch shoimi qurshab olgan o'quvchilar qatori tashqariga chiqdim. Kitob rastasiga yaqinlashib, pulni uzatib ulgurmasimdan sotuvchi ayol kitobni qo'limga tutqazdi.

O'sha kitob hozir ham kutubxonam javonidagi eng ko'rinarli yerda turadi. Chunki 1987-yilda qayta nashr etilgan she'r va dostonlardan iborat "Yillar armoni" to'plamini tez-tez joyidan qimirlatib turishga to'g'ri keladi. Salkam 40 yildan beri uni ota-onam, singillarim, farzand va jiyalarim, qolaversa, ijodkor do'stlarim bilan qayta-qayta varaqlaymiz, uning sahifalaridagi bitiklar orqali shoimning sirli va sehrli olamiga sayr qilamiz.

\*\*\*  
Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti atqolli namoyandalari tavallud sanalarini munosib nishonlash, kitobxonlik bayramlari o'tkazish, ijodiy merosini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratish nazarda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan.

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atqolli shoir, taniqli jamoat arbobi, davlatimiz madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat

qilayotgan betakror ijodiy merosi, Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarini madh etgan yetuk badiiy asarlari, sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyati har qancha tadqiq qilishga arzigulik.


— Ustozning benazir she'riyati uning ilk to'plami "Mitti yulduz"dan tortib, umrining oxirigi nafasida bitgan so'nggi satrigacha ona Vatanimiz va xalqimizga fidoyilarcha xizmat qildi, — deydi O'zbekiston xalq shoiri, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. — Abdulla aka butun umr inson fazlu kamolini, vijdon, imon va e'tiqodni tarannum etdi. Uning onaga muhabbati — Vatanga muhabbat, Vatanga muhabbati esa onaga muhabbat timsolida tillar va ellarda doston bo'ldi. Insonga muhabbati butun insoniyat va bani basharga muhabbatning otashin izhori bo'lib yangradi. Bor hayoti, butun ijodi davomida bir umr insonni koinot gulto'ji, deya sharafladi. Shu bois, haqiqatparvar va adolatgo'y shoir tubanlik, hirsu hasad va xiyonat, razillik va qabihlikdan nafratlanib ijod qildi, she'rlari bilan jaholatga qarshi kurashdi. Tom ma'noda adabiyotning haqiqiy vijdoni bo'lib faryod chekdi.

\*\*\*  
Ilk bor respublika matbuotida "Abdulla Oripov" degan muallif imzosi 1959-yil 20-mart kuni paydo bo'ldi. O'sha sanada bolalar va tarovlati Abdulla Oripov ijodi orqali uchinchi davrda adabiyotga, so'zga mehr-muhabbat uyg'otadi.

— Butun boshli avlodlar shoimning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat, olijanob insoniy fazilatlar madh etilgan she'riyati ruhida kamol topdi, — deydi filologiya fanlari nomzodi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Olim Toshboyev. — Adabiyot muxlisilari she'rning ajib sehiri, so'z qudrati va tarovlati Abdulla Oripov ijodi orqali uchinchi davrda adabiyotga, so'zga mehr-muhabbat uyg'otadi. Uning she'rlari kirib bormagan o'zbek xonadoni yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkorni e'zozlagan, kitobga oshuftalirni rag'batlantirgan xalqning esa qadri baland bo'ladi. Milliy g'oya, Uchinchi Renessans poydevorini adabiyot, xususan, Abdulla Oripov she'riyatidagi tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning ma'naviy-g'oyaviy qiyofasi adabiyotga munosabat bilan belgilanadi.

Shu o'rinda dunyo tanigan yozuvchi Chingiz Aytmatovdan ham bir iqtibos keltirish o'rinni: "Katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u — hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o'z xalqining ovozi, orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodasidir. Biroq eng asosiysi, u o'z davrining hakami va kuychisi, u jarchi va faylasuf, u so'z sehgari va uzlatga chekingan mutafakkir — darvish. Bularning bari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli, shu bilan birga, ko'tarinki, teran ma'nolar mohiyatini ifodalash uchun ato etilgan. Shu bois, shoimning so'zlaridan zamonodoshlari ham, kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradi. Abdulla Oripov mening ko'z oldimda XXI asrga qadam qo'yish davrimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo'lib gavdalanadi".

\*\*\*  
Abdulla Oripov qoldirgan adabiy merosining o'rganilishi va targ'ib etilishi millat ma'naviyatining bardavomligini anglatadi.



U singari millat farzandlarining yubileyini nishonlash milliy ma'naviyatga umumdavlat miqyosida e'tibor qaratilayotganing yaqqol dalolatidir. Bu kabi sa'y-harakatlar yoshlarda adabiyotga, so'zga mehr-muhabbat uyg'otadi.

— Butun boshli avlodlar shoimning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat, olijanob insoniy fazilatlar madh etilgan she'riyati ruhida kamol topdi, — deydi filologiya fanlari nomzodi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Olim Toshboyev. — Adabiyot muxlisilari she'rning ajib sehiri, so'z qudrati va tarovlati Abdulla Oripov ijodi orqali uchinchi davrda adabiyotga, so'zga mehr-muhabbat uyg'otadi. Uning she'rlari kirib bormagan o'zbek xonadoni yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkorni e'zozlagan, kitobga oshuftalirni rag'batlantirgan xalqning esa qadri baland bo'ladi. Milliy g'oya, Uchinchi Renessans poydevorini adabiyot, xususan, Abdulla Oripov she'riyatidagi tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning ma'naviy-g'oyaviy qiyofasi adabiyotga munosabat bilan belgilanadi.

\*\*\*  
Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog' hududida qad rostlagan Adiblar xiyoboni 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-346. 31346 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

tarovlati maskaniga aylandi. Bu yerda o'zbek milliy mumtoz va zamonaviy adabiyotining eng zabardast vakillari haykali qad rostladi. Ular orasida Abdulla Oripov siyosi ham abadiyatga muhrlangan. Qolaversa, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yilda Qarshi shahrida shoir nomidagi ijod maktabi ham ochilgan bo'lib, bugun maskanda yosh iqtidorlar ta'lim oladi.

O'zbek adabiyoti doimo o'z o'rniga ega katta maktab bo'lib kelgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak".

Abdulla Oripovning xalqimiz qalbiga singib ketgan ijod namunalari shu qadar ko'pki, ular barcha avlodlar uchun oltin meros bo'lib qoldi. She'riyatga dastlab "Mitti yulduz" to'plami bilan kirib kelgan shoir deyarli oltmish yil mobaynida yozilgan asarlari bilan o'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biriga aylandi.

Eng muhimi, bu ijodning xalqimiz ma'naviy kamolotiga ta'siri yildan yilga ortsa ortyaptiki, aslo kamaymaydi. Zamonlar o'tishi, tuzumlar o'zgarishi, badiiyatning o'zidagi ichki yemirilishlar tufayli muayyan davrda katta shon-shuhrat topgan asarlar bora-bora o'z qiymatini yo'qotishi mumkin. Ammo Abdulla Oripov merosidagi asarlar nainki barcha zamonlar, balki butun insoniyat uchun qadri. Zero, uning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'zbekiston", "Sen bahorni sog'inmadingmi?", "Birinchi muhabbatim", "Ayol", "Onajon" kabi juda ko'plab ijod namunalari insonga xos bo'lgan betakror va go'zal tuyg'ular, sevinch va sog'inch o'zining go'zal ifodasini topgan.

— Haqiqiy ijodkor hayotining biror lahzasini Vatan va millat tuyg'usidan ayro kechmaydi, — deydi filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov. — Agar shu tuyg'udan mahrum bo'lsa, u ijodkor emas. Birgina "Vatan! Mening bor qismatim shu bir so'zda hal" degan misra orqali ifoda etilgan o'tli fikr O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov hayoti va ijodining asl mohiyatini aks ettira oladi. She'rlarida shoir

ushbu tuyg'uni milliy ruh va yuksak badiiyat uyg'unligida betakror talqin etdi. Estetik tafakkuri ijod ahli yetishmog'i mushkul bo'lgan yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Milliy adabiyotning taraqqiyot mezonlarini belgilab berdi. She'riyatda o'ziga xos an'analariga, munosib izdoshlariga ega maktab yaratdi. U ijodining avvalida o'z yo'lini topgan va adabiyotga o'z so'zini ayta olgan favqulodda iste'dod sohibi edi:

**Men shoirman,  
Istasangiz shu,  
O'zimizni erur shu sozim,  
Birovlardan olmadim tuyg'u,  
O'zga ham bermam ovozim.**

Qo'lga qalam ushlab, she'r yozishni niyat qilgan o'zbek borki, Abdulla Oripov nomi qarshisida bir dam o'yg'a to'ladi. Yigirmanchi asr o'zbek she'riyatining eng zabardast vakili iste'dodi oldida hayratga tushadi. Shoir she'riyatining sehru jozibasini, ohanrabosi shundaki, undagi har bir so'z nafosati bilan o'qirmanni o'ziga asir etadi. Ruhini ko'tarib, umid ildizlariga suv quyib, quvvatlantiradi. Intilish uchun cheksiz sarhadlar sari yo'naltiradi. Shuningdek, benazir shoimning o'lmas she'rlari hali yana qanchadan qancha qalblarga ilhom soladi. Uning she'riyati umrboqiylikka yuz tutgan nazmdir.

\*\*\*  
Darvoqe, o'shanda ertasi kuni To'xtamurod akaga pulni qaytardim. Taxminan bir yildan keyin maktabni bitirish arafasida esa Chorusudagi kitob do'konida "Yillar armoni" sotilayotgan ustidan chiqib qoldim. O'ylab ham o'tirmay, bir donasini sotib olib, adabiyot o'qituvchimizga sovg'a qilgan edim.

Yana bir gap. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov bilan ikki marta — Yozuvchilar uyushmasining avvalgi binosida va Navoiy ko'chadagi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligida yuzma-yuz ko'rishish hamda suhbatidan bahramand bo'lish nasib qilgan. Tafsilotlarni mavridi bilan qog'ozga tushirish niyatimiz ham yo'q emas.

**Nodir MAHMUDOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**



8

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-346. 31346 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov  
Musahhah: Sherzod Mahmudov  
Dizaynerlar: Zafar Ro'ziyev  
Xurshid Abdullayev  
Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy  
O'za yakuni — 01-15